

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MAGISTRATURA BO'LIMI

**Qo'l yozma huquqida
UDK: 336.71(330.3)**

XIDOYATOVA NIGINA SANJAROVNA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING
IJTIMOIY-IQTISODIY SOHALARDAGI INVESTISION
FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI**

Mutaxassislik: 5A230102 – Iqtisodiyot (ijtimoiy soha iqtisodiyoti)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTASIYA

Ilmiy rahbar _____

i.f.n., dots. T. Umarov

TOSHKENT – 2018

Dissertatsiya Toshkent moliya instituti «Iqtisodiyot nazariyasi» kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar

dots. T. Umarov

Kafedra mudiri

dots. X. Asatullayev

Magistratura bo'limi boshlig'i

i.f.n., dotsent U.Ortiqov

Men, Xidoyatova Nigina Sanjarovna ushbu magistrlik dissertatsiya ishini mustaqil bajardim. Ko'chirmachilikka yol' qo'ygan holatimda magistrlik dissertatsiya ishi Yakuniy Davlat Attestatsiya Komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va "Qoniqarsiz" baho qo'yilishidan xabardorman.

Xidoyatova N. _____ ” _____

M U N D A R I J A

	KIRISH.....	4
I-BOB	TIJORAT BANKLARI INVESTITSION FAOLIYATINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI	9
1.1.	Banklarning investitsion faoliyatining nazariy-huquqiy asoslari.....	9
1.2.	Tijorat banklari investitsiya faoliyatining shakllari va investitsiya portfeli	18
1.3.	Tijorat banklari investitsiya faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar.....	23
	Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	34
II-BOB	TIJORAT BANKLARINING IJTIMOY-IQTISODIY SOHALARDAGI INVESTISION FAOLIYATI TAHLILI.....	35
2.1.	Ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi "Ipoteka-bank" ATIBning asosiy moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili.....	35
2.2.	Ipoteka-bank" ATIBning investitsion faoliyati samaradorligining iqtisodiy faollikka ta'siri.....	42
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	52
III-BOB	TIJORAT BANKLARINING IJTIMOY-IQTISODIY SOHALARDAGI INVESTISION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	54
3.1.	Ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni rivojlantirishda tijorat banklari investitsion kreditlarining rolini oshirish.....	54
3.2.	Ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni moliyalashtirishda investitsion kreditlardan samarali foydalanish yo'llari.....	60
	Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	68
	XULOSA VA TAKLIFLAR.....	70
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	74

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, islohotlarni chuqurlashtirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlarni yaratish, amalda faoliyat yuritayotgan texnika va texnologiyalarni yangilash, ularni qo'llab-quvvatlash investitsion jarayonlarni nechog'liq to'g'ri va samarali amalga oshirishga bog'liq. Shu boisdan ham, O'zbekiston Respublikasi davlat rahbari tomonidan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun markazlashgan, markazlashmagan jamg'armalar mablag'lari, xorijiy investitsiyalar va kreditlarni o'zlashtirishga hamda ulardan samarali foydalanish masalalariga urg'u berilmoqda.

2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobidan uning raqobatdoshligini oshirish yo'nalishida korxonalarning mablag'lari, O'zTTJ, tijorat banklari krediti, xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan 2017 - 2021 yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSh dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlari amalga oshiriladi.

Bank tizimi iqtisodiyotni eng katta ajralmas qismi hisoblanib, bunda katta hajmdagi pul mablag'lari aylanadi, ishlab chiqaruvchi va investitsiya korxonalariga joriy xizmatlar ko'rsatadi, bu tizimning rivojlanishi jamiyatning rivojlanishiga va o'z maqsadlariga yetishishiga olib keladi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh.M. "...ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar, tarmoq va hududlar bo'yicha maqsadli dasturlar, ustuvor investitsiya loyihalari va boshqa

dolzarb vazifalar bajarilishini tanqidiy tahlil qilish yuzasidan amaldagi mavjud tizim samaradorligini oshirishimiz lozim.”¹ deganlari bejizga emas.

Shuning uchun investitsiya jarayonlarini moliyaviy ta'minlashda tijorat banklarining o'rni va rolini oshirish hamda banklarning investitsion kreditlash amaliyotini takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish zaruriyati magistrlik tadqiqoti mavzusining va avtorning tadqiqot yo'nalishi dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqot obyekti va predmetining belgilanishi. Tijorat banklarining ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi investitsion loyihalari tadqiqot obyekti bo'lib hisoblanadi. Tadqiqotning predmeti bo'lib, investitsion loyihalarni bank kapitali orqali moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar, tijorat banklari va boshqa turli xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni o'rganish hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Tadqiqot maqsadi tijorat banklarida investitsion faoliyatni tashkil qilish tamoyillari va unga ta'sir qiluvchi omillarni o'rgangan holda investitsion faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun dissertatsiyada quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- investitsion loyihalarni moliyalashtirish muammosining nazariy jihatlarini yoritish;
- tijorat banklari tomonidan investitsion kreditlar berish borasidagi milliy va xorijiy amaliyotni tahlil qilish;
- tijorat banklarning investitsiya portfellarini shakllantirish va monitoringi jarayonining tahlili bo'yicha tavsiyalar berish;
- tijorat banklari investitsiya portfelini boshqarishni takomillashtirish yo'llari bo'yicha tavsiyalar berish;

¹ **Мирзиёев Шавкат Мирмонович.** Эркин ва фаровон, демократии Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимида киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ /Ш.М. Мирзиёев. - Тошкент: «Ўзбекистан» НМИУ, 2016. -19 6.

- o'tkazilgan tahlil asosida O'zbekistonda investitsion loyihalarni tijorat banklari tomonidan moliyalashtirishning samaradorligini pasaytiruvchi muammolarni yechish va kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini aniqlash.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Dissertatsiya ishida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi tijorat banklari tomonidan investitsion kreditlar berish amaliyotini takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish orqali investitsiya loyihalarini samarali amalga oshishi, bank moliviy barqarorligining mustahkamlanishi kabi ijobiy natijalarga erishiladi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni rivojlantirishda investitsion faoliyatning mazmun va mohiyati hamda investitsion kreditlashni rag'batlantirish masalalarining ba'zi sohalari A.S.Lavrushin², S.R.Piter, A.A.Trif, D.L.Rubinfeld, B.A.Perekatov, V.V.Kovalev, E.A.Markaryan, G.P.Gerasimenko, M.A.Limitovskiy, I.P.Lyubishkin, M.Bromovich, F.B.Idrisov, D.A.Yendovitskiy kabi xorijiy iqtisodchilar ishlarida tadqiq etilgan.

Milliy adabiyotlarda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni rivojlantirishda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda banklarning o'rni va roli hamda investitsion kreditlash amaliyoti haqida D.G.G'ozibekov, Sh.Z.Abdullayeva³, A.S.Jo'rayev, M.S.Angelidi, A.Uzoqov, E.Nosirov, N.Karimov, B.Mamatov, R.Saidov, N.Kenjaye, D.Xo'jamqulov va boshqalarning ilmiy ishlarida o'rganilgan.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tasnifi. Tadqiqot jarayonida statistik, analitik, sintetik, qiyosiy, induktiv, deduktik, mantiqiy va boshqa tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy-nazariy va amaliy g'oyalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O'zbekistonda investitsion loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishni

² Лаврушин О. Банковское дело:/Учебное пособие/-М: Финансы и статистика, 2012. с.124.

³ Abdullayeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. O'quv qullanma. -T. «Moliya», 2009. 119-bet.

takomillashtirish va unga oid kelgusidagi maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotining real sektori korxonalari investitsion-innovatsion talablarini investitsion kreditlar vositasida moliyalashtirishni tatbiq etishga yo'naltirilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqilishi, ular doirasida chora-tadbirlar majmuasining asoslab berilishi tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiyada banklar tomonidan investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan mamlakatimizda investitsiya loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Dissertatsiya ishining asosiy ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

- investitsion loyihalarni moliyalashtirish muammosining nazariy jihatlarini ochib berildi;
- tijorat banklari tomonidan investitsion kreditlar berish borasidagi milliy va xorijiy amaliyotni tahlil qilindi;
- tijorat banklarning investitsiya portfellarini shakllantirish va monitoringi jarayonining tahlili bo'yicha tavsiyalar berildi;
- tijorat banklari investitsiya portfelini boshqarishni takomillashtirish yo'llari bo'yicha tavsiyalar berildi;
- O'zbekistonda banklarning innovatsion faoliyatni moliyalashdagi ko'rsatkichlarni tahlil qilindi.
- O'zbekistonda investitsion loyihalarni tijorat banklari tomonidan moliyalashtirishning samaradorligini pasaytiruvchi muammolar ko'rsatildi va kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini ochib berildi.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Tadqiqot ishi kirish, uch bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, birinchi bobda tijorat banklari investitsion faoliyatining nazariy va huquqiy

asoslari yoritilgan, ikkinchi bobda tijorat banklarining ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi investitsion faoliyati tahlili amalga oshirilgan va “Ipoteka-bank” ATIB misolida ko’rsatib o’tilgan hamda so’ngi bobda tijorat banklarining ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi investitsion faoliyati samaradorligini oshirish yo’llari yoritilgan, istiqbolli ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.

I-BOB TIJORAT BANKLARI INVESTITSION FAOLIYATINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Banklarning investitsion faoliyatining nazariy-huquqiy asoslari

Investitsiya siyosatining samaradorligini ta'minlash iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlari va hozirgi kun talablariga javob beradigan mukammal investitsiya dasturini ishlab chiqishni talab etadi. Shuningdek hukumat tomonidan investitsiya jarayonlarini takomillashtirish maqsadida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga katta e'tibor berishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada huquqiy shart-sharoitlarni yaxshilash maqsadida respublikamizda "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi, "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi, "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari qabul qilinishi, bundan tashqari Respublikamiz Prezidenti tomonidan 2005 yil aprel oyida "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2010 yil 26 noyabrda "2011-2015 yillarda respublika moliya bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi va 2009 yil 28 iyulda "Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlarining qabul qilinishi investitsiya jarayonlarini huquqiy jihatdan yanada takomillashishiga zamin yaratadi.

Investitsiya jarayonlarini moliyaviy ta'minlashning bozor mexanizmi tijorat banklarining foal ishtirok etishini bildiradi. "Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga ko'ra, tijorat banklarining tuzilmalari qayta tashkil etildi, eng yirik banklarda investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish va monitoring qilish bo'yicha

departamentlar (boshqarmalar) tuzildi, investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish, moliyalash va amalga oshirilishini monitoring qilish bilan shug'ullanuvchi banklarning tarkibiy bo'linmalari sezilarli ravishda o'zgartirildi hamda ularning funksiyalari kengaytirildi;

Barcha tijorat banklarida investitsiya faoliyati masalalariga mutasaddilik qiladigan banklar boshqaruvi raislarining o'rinbosarlari lavozimi joriy etildi, ularga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 oktyabrdagi R-3075-sonli farmoyishiga muvofiq o'tkazilgan attestatsiya natijalari bo'yicha qonunchilik bazasini chuqur biladigan, investitsiya loyihalarini investitsiyaviy moliyalash, tanlab olish va ekspertiza qilish sohasida zarur ko'nikmalarga ega bo'lgan rahbarlar tayinlandi.

Banklar balansiga qabul qilingan bankrot-korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini moliyalash bo'yicha tijorat banklarining faoliyati rivojlandi. Banklarning umumiy kredit portfeli tarkibida bir yildan ko'proq muddatga berilgan kreditlar hajmi 70 foizdan ortiqroqni tashkil etmoqda.

Quyidagilar investitsiya faoliyatini kengaytirish sohasida tijorat yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha bankning kredit hamda investitsiya siyosatini va investitsiya loyihalarini uzoq muddatli kreditlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, buning asosida bankning uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlash;

- loyiha hujjatlari, ularning moliyaviy jihatdan o'zini qoplashi va rentabelligini chuqur tahlil qilish asosida investitsiya loyihalarini puxta tanlab olish, kompleks baholash hamda sifatli ekspertiza qilishni ta'minlash;

- investitsiya loyihalarini moliyalashga o'z moliya mablag'larini sarflash va ulardan samarali foydalanish, loyihalarning amalga oshirib borilishini doimiy

monitoring qilish, qo'yilgan mablag'larning o'z vaqtida va to'liq qaytarilishini ta'minlash;

- tavakkalchilik, garovlar va ta'minlashning boshqa turlari bozor qiymatini puxta baholashni hisobga olgan holda, berilgan kreditlarning o'z vaqtida hamda to'liq qaytarilishini ta'minlaydigan ishonchli mexanizmlardan keng foydalanish;

- investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan banklar bo'linmalarini professional tayyorlangan yuqori malakali kadrlar bilan mustahkamlash, investitsiya loyihalarini tanlab olish, ekspertiza qilish va amalga oshirish masalalari bo'yicha bank mutaxassislarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish sifatini tubda yaxshilash.

- banklarining eng muhim vazifalari bo'lib hisoblangan.

Tijorat banklariga korxona va tashkilotlar - yirik investitsiya loyihalari tashabbuskorlariga loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va ularni investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun qabul qilishda umuman loyihani moliyalash uchun beriladigan kreditning umumiy summasiga kiritgan holda, ekspertizadan o'tkazish bo'yicha xarajatlarni moliyalashga kreditlar berishni amaliyotga tatbiq qilish tavsiya etilgan.

“2011-2015 yillarda respublika moliya bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida”gi Qaroriga ko'ra, omonatchilar uchun kafolatlarni kuchaytirish va bank tizimiga aholi hamda xorijiy investorlarning ishonchini yanada mustahkamlash, yangi jozibali omonatlar va depozitlarni tatbiq etish, ko'rsatilayotgan bank xizmatlarining turi va ko'lamini kengaytirish yo'li bilan aholi hamda xo'jalik subyektlarining bo'sh mablag'larini bank aylanmasiga keng jalb etish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish, hamda tijorat banklarining investitsiyaviy faolligini kuchaytirish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda tijorat banklari ishtirokini yanada kengaytirish, loyihalarni ekspertiza qilish va xatarni baholash tizimini takomillashtirish, kreditlar bo'yicha muammoli qarzlarning hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik borasida oldini olish

choralarini ko'rish yo'li bilan tijorat banklarining kredit portfeli muttasil o'sishi hamda sifati yaxshilanishini ta'minlash, shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni moliyalashtirishning, aholi bandligi va farovonligini oshirishning g'oyat muhim vositasi sifatida mikromoliyalash sohasi rivojlanishini rag'batlantirish, tijorat banklarida hisob-kitob va hisobotlarning yangicha yondashuvlarini shakllantirish hamda zamonaviy texnologiyalari va uslublarini joriy qilish, moliya-bank axboroti saviyasi hamda sifati oshirish, yetakchi xalqaro reyting tashkilotlari talablariga muvofiq undan keng ko'lamda foydalanishni ta'minlash, respublika tijorat banklari va moliya institutlarini dunyoda qabul qilingan standartlar, uslubiyatlar va baholash ko'rsatkichlari tizimida ishlay oladigan, professional tayyorlangan yuqori malakali mutaxassislar bilan mustahkamlash, moliya-bank faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish kabilar respublikaning moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilangan.

Faol investitsiya siyosati mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning eng muhim sharti va manbai bo'lishi kerak. O'zbekistonda so'nggi besh yil mobaynida investitsiyalarning yillik o'sish sur'ati 9 foizdan ziyodni tashkil etmoqda va bu dunyodagi yuqori, barqaror ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etayotganini inobatga oladigan bo'lsak, bugungi murakkab sharoitda erishilgan bu natijaning ahamiyati va mohiyati yanada yaqqol ayon bo'ladi.

Keyingi 10-yilda mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar hajmi 3,2 barobar oshgan bo'lsa, shu davrda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 20 barobardan ziyod o'sgani e'tiborga sazovordir.

Ushbu qonunlar tufayli respublikada xalqaro talablarga javob beradigan investitsiya iqlimini yaratishda muhim hujjat bo'ladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, O'zbekistonda xorijiy sarmoya oqimining ko'payishiga ko'maklashuvchi

yuqori samarali imtiyozlar va ragʻbatlar tizimi meʼyoriy – huquqiy hujjatlar tomonidan yaratilgan va ular takomillashib bormoqda.

Banklar tomonidan investitsion kreditlar ajratishda “Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom ham asosiy meʼyoriy huquqiy asos boʻlib xizmat kiladi. Bu nizomda sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish uchun bank sindikatini tashkil etish tartibi, kreditlarni rasmiylashtirish tartibi, sinditsiyalashtirilgan kreditlash, uning hisobini yuritish monitoringini olib borish va uni qaytarish tartibi keltirib oʻtilgan. Unga koʻra tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish jarayonida ishtirok etadigan asosiy tushunchalar quyidagilar:

sinditsiyalashtirilgan kredit - bir necha banklar tomonidan yirik investitsiya loyihalarini birgalikda kreditlash;

yirik investitsiya loyihasi - umumiy qiymati tijorat banklarining birinchi darajali kapitalining 25 foizidan oshadigan investitsiya loyihasi;

bank sindikati - sinditsiyalashtirilgan kredit berish borasida ikki yoki undan ortiq banklar oʻrtasida oʻzaro kelishuv;

yetakchi bank - sinditsiyalashtirilgan kreditlash tashabbusi bilan chiqqan va zimmasiga ishtirokchi-banklar nomidan kredit hujjatlarini yuritish masʼuliyati yuklatilgan qarz oluvchining asosiy talab qilib olinguncha depozit hisob varagʻiga xizmat koʻrsatuvchi bank;

ishtirokchi bank – sinditsiyalashtirilgan kredit berishda qatnashuvchi bank.

Shu bilan bigalikda qarz oluvchi oʻziga xizmat koʻrsatuvchi bankka yirik kredit berishni soʻrab murojaat qilganidan keyin, bank kreditlash uchun lozim boʻlgan standart tadbirlarni: oʻzining ichki kredit siyosatiga mos ravishda mijozning kreditga qobiliyatligi tahlilini, biznes-rejasi tahlilini, kredit qaytarilishini taʼminlanganligi tahlilini va boshqalarni amalga oshiradi. Sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirishning mumkinligi toʻgʻrisida

kredit qo‘mitasi qaror qabul qilgan taqdirda, bank bir vaqtning o‘zida ushbu bitimga boshqa banklarni jalb etish hamda sinditsiyalashtirilgan kreditlash tashkilotchisi sifatida bank sindikatini tashkil etish haqida qaror qabul qiladi.

Nizomga muvofiq, yirik investitsiya loyihasi uchun sinditsiyalashtirilgan kredit olish uchun, qarz oluvchi yetakchi bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- kredit buyurtmasi;
- loyihaning texnik-iqtisodiy asoslanishi;
- qarz oluvchining bank hisobvarag‘iga pul tushumlari (pul oqimi) taxmini albatta ko‘rsatilgan biznes-reja;
- qarz oluvchining kreditga layoqatliligini aniqlash uchun Davlat soliq xizmatining mahalliy (tuman) organi tomonidan tasdiqlangan 1, 2, 2a-shakllardagi oxirgi 3 yillik moliyaviy hisoboti;
- yetakchi bankning kreditlashni tashkil etishga doir ichki qoidalarida ko‘zda tutilgan boshqa hujjatlar.

Har qanday kreditlash jarayonida monitoring olib borilishi shart. Xususan sinditsiyalashtirilgan kreditlashda xam monitoring muntazam olib boriladi. Yuqoridagi nizomga ko‘ra yetakchi bank tomonidan qarz oluvchining kreditni qaytarish qobiliyatini, berilgan kreditdan maqsadli foydalanishi va garov holati yoki kafilning moliyaviy holati bo‘yicha kreditdan foydalanishning butun muddati davomida monitoringni amalga oshiriladi. Ushbu monitoring ishtirokchi banklar talabi asosida, ular ishtirokida yoki kredit shartnomasida belgilangan tartibda har bir ishtirokchi bank tomonidan mustaqil amalga oshirilishi mumkin.

Investitsiya loyihalarini tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutada kreditlash tartibi bo‘yicha ”Investitsiya loyihalarini erkin almashtiriladigan valyutada kreditlash to‘g‘risida” Nizom ishlab chiqilgan.

Nizomda xorijiy valyutada kreditlarni berish tartibi, Xorijiy valyutada kreditlarni to‘lash tartibi, Xorijiy valyutadagi kreditlardan foydalanishi va ularning to‘lanishini nazorat qilish kabi tartib qoidalar o‘z aksini topgan. Ushbu nizomga

ko'ra, vakolatli banklar o'z ustavlariga hamda ularga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining litsenziyalarida berib qo'yilgan valyuta operatsiyalarini amalga oshirish huquqlariga muvofiq yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar (keyingi o'rinlarda qarz oluvchilar)ni xorijiy valyutada kreditlashni amalga oshiradilar.

Qarz oluvchi kredit olishi uchun vakolatli bankka asosli tarzdgagi taqdimnoma bilan murojaat etadi.

Qarz oluvchining taqdimnomasi va unga ilova qilingan hujjatlar quyidagi axborotlarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak:

a) kreditni olishdan ko'zlangan maqsadni, kredit olish zarur bo'lgan miqdor va muddatni;

b) xoriydan xarid qilinayotgan tovarning, mamlakatning tavsifini, to'lov valyutasini, qiymatini, uskunalarni sotib olishda esa - zarur xomashyo bilan ta'minlash to'g'risidagi ma'lumotlarni;

v) kreditlanayotgan tadbirning texnikaviy-iqtisodiy asoslarini, uning valyuta bilan o'zini-o'zi qoplashini;

g) butun qurilish, uskunalarni sozlash va ishlab chiqarish quvvatlarini o'zlashtirish davri mobaynida ishlarning texnikaviy loyihasi yoki jamlanma jadvalini;

d) kreditdan foydalanish va uni to'lash muddatining hisobini.

Nizomga muvofiq, xorijiy valyutada kreditlarni to'lash tartibi belgilab chiqilgan. Kredit bo'yicha qarzni to'lash qarz oluvchining topshirig'iga (arizasiga) ko'ra, uning talab qilib olinadigan depozit hisobvarag'idan xorijiy valyutada amalga oshiriladi. Kredit bo'yicha qarzni to'lashda birinchi navbatda kreditdan foydalanganlik uchun foizlar summasi undiriladi. Amaldagi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda qarz so'mdagi mablag'larni ichki valyuta bozorida erkin almashtiriladigan valyutaga almashtirish orqali to'lanishiga yo'l qo'yiladi.

Nizomda xorijiy valyutadagi kreditlardan foydalanish va ularning to'lanishini nazorat qilishga ham alohida to'xtalib o'tilgan. Ya'ni, unda aytilishicha, vakolatli banklar qarz oluvchilar bank xorijiy valyutada bergan kredit hisobiga sotib olgan uskunalarni belgilangan muddatda foydalanishga topshirishga rioya etishlarini va undan samarali foydalanishni joylarda tekshiruvlar o'tkazish yo'li bilan ham nazorat qiladi.

Kredit shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaydigan qarz oluvchilarga nisbatan vakolatli banklar quyidagi huquqlarga ega bo'ladilar:

- kredit berishni vaqtincha yoki to'liq to'xtatib qo'yish;
- berilgan kredit bo'yicha butun qarz summasini muddatidan ilgari undirib olish;
- kredit bo'yicha foiz stavkasini oshirish (uskunalarni o'z vaqtida montaj qilmaganda va ishga tushirmaganda).

Qarz oluvchi kredit shartnomasining shartlarini muntazam ravishda bajarmaganda vakolatli bank o'z shartlariga ko'ra, qarz oluvchidan ilgari unga berilgan xorijiy valyutadagi barcha kreditlarni muddatidan ilgari to'lashni talab qilishi mumkin.

Kichik va yirik biznesni, xususiyl tadbirkorlikni rivojlantirish uchun xalqaro moliyaviyl institutlar va tashkilotlarning kredit resurslarini keng jalb etish, kredit berishning yangi shakllari va usullarini joriyl etish, tadbirkorlik tuzilmalarining moliyaviyl mablag'lar olishini kengaytirish maqsadida respublikamiz hukumati tomonidan turli xildagi me'yoriyl-huquqiyl asos bo'lib xizmat qiladigan qarorlar, farmonlar ishlab chiqilmoqda. Mana shunday qarorlardan biri "Yevropa tiklanish va taraqqiylot banki ishtirokida mikrokredit berish dasturini amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining Qarori.

Mazkur qarorga muvofiq:

- kichik tadbirkorlik subyektlariga Yevropa tiklanish va taraqqiylot bankining kredit liniyasi mablag'lari hisobiga mikrokredit berish Yevropa tiklanish va

taraqqiyot banki tomonidan tanlab olingan tijorat banklari orqali milliy valyutada amalga oshiriladi;

- erkin almashtiriladigan valyutadagi ko'rsatib o'tilgan kredit liniyasi mablag'larini milliy valyutaga konvertatsiya qilish tijorat banklari tomonidan ularni birjadan tashqari valyuta bozorida sotish yo'li bilan amalga oshiriladi;

- mikrokreditlar bir qarz oluvchiga 5000 AQSh dollariga teng miqdordan ortiq bo'lmagan miqdorda beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mikrokredit berish dasturida qatnashayotgan tijorat banklariga kichik tadbirkorlik subyektlariga aylanma mablag'larni to'ldirish uchun naqdsiz shaklda, shuningdek faqat naqd shaklda qaytarish sharti bilan naqd mablag'larda mikrokreditlar berish huquqini berish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilgan.

Vazirlar Mahkamasining Tashqi iqtisodiy aloqalar va xorijiy investitsiyalar departamenti O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va O'zbekiston Banklar uyushmasi bilan birgalikda kichik biznes, xususiy tadbirkorlik subyektlariga mikrokredit berishning keng ko'lamli dasturini amalga oshirishga tijorat banklarini qo'shimcha jalb etish to'g'risidagi masalani Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan ishlab chiqadi.

Investitsion muhit holati yaratilgan huquqiy baza va uning asoslari, qonun hujjatlarining sifatli tuzilishi va ularga rioya qilinishi talab etiladi. Har bir davlat kapital import qilishda o'zining aniq kapital qabul qilish tizimiga ega bo'ladi. Kapital qabul qilish tizimi, bu xorijiy kapitalga nisbatan davlat siyosatining va qonunlarining, me'yoriy hujjatlarining majmuasidir. O'zbekistonda ham ishlab chiqarishga kapital qabul qilish tizimi yildan yilga takomillashib bormoqda. Hozirda xorijiy investitsiyalarga bo'lgan munosabatda zamonaviy xalqaro xo'jalik aloqari qoidalariga asoslangan holda qonun va qarorlar ishlab chiqilmoqda, shuningdek, xorijiy investitsiyalarning infratuzilmalari yaratilmoqda.

1.2. Tijorat banklari investitsiya faoliyati shakllari va investitsiya portfeli

Tijorat banklarining investitsiya faoliyatidan maqsadi quyidagilar:


- Bankning daromad bazasini kengaytirish;
- Moliyaviy barqarorlikni oshirish va faoliyat turlarini kengaytirish va uning hisobiga bankning umumiy xatarini kamaytirish;
- Bankning tez o'zgaruvchan bozorlardagi ishtirokini ta'minlash;
- Sho'ba moliya institutlari tashkil qilish orqali mijozlar va resurslar bazasini, xizmatlar turini kengaytirish;
- Qimmatli qog'ozlarni nazorat qilish orqali mijozlarga ta'sirini kuchaytirish.

Umumiy holatda tijorat banklarining investitsion jarayonda qatnashishining asosiy yo'nalishlari quyidagicha:

- bank tomonidan mablag'larni investitsion maqsadlarda mobilizatsiya qilish;
- investitsion kreditlar berish;
- pul mablag'larini qimmatli qog'ozlarga kiritish, payva ulush shaklida.

Investitsion faoliyat subyektlari bo'lib investorlar, banklar, obyektlari bo'lib esa yangitdan tashkil etilayotgan tashkilot, loyiha yoki yangilanayotgan hudud, qimmatli qog'ozlar, maqsadli pul qo'yimalari, ilmiy-texnik ishlanmalar va boshqalar bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, banklar va har qanday investor o'zining investitsiya uchun ajratmoqchi bo'lgan mablag'larini real investitsiyalarga yoki portfel, ya'ni qimmatli qog'ozlarga sarflaydi:



1.1-rasm. Investitsion qo'yilmaning tarkibiy qismlari⁴

⁴ Aliyev I. "Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan opertasiyalari".-T.:O'zbekiston,2005y-B-15. darsligi asosida tayyorlandi.

1.1-rasmda investitsion qo'yilmalar qimmatli qog'ozlarga va real sektorga bo'linishi ko'rsatib o'tilgan. Real investitsiyalar kiritilganda investor mazkur sohaga pul kiritishi bilan birga, asosiy vositalar, ishchi kuchlari, turli qiymatliklar kiritishi mumkin.

Portfel investitsiyalar esa korxonaning fond qimmatli qog'ozlarini sotib olish orqali ma'lum miqdorda foyda olishdan iborat bo'ladi.

Tijorat banklari qimmatli qog'oz sotib ola turib o'z oldiga bir qator maqsadlarni qo'yadi:

- investitsion qo'yilmaning xavfsizligi;
- investitsion qo'yilmaning daromadlilikligi;
- investitsion qo'yilmaning o'sib borishi;
- investitsion qo'yilmaning likvidlilikligi.

Qimmatli qog'ozlar portfelini quyidagi turlari mavjud:


- balanslashtirilgan, kredit tashkilotining investitsion strategiyasiga to'liq mos keluvchi;
- balanslashmagan, kredit tashkilotining investitsion strategiyasiga to'liq mos kelmaydigan.

Qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirishdan maqsad:

- daromad olish;
- kapitalni saqlash;
- qimmatli qog'ozlar narxlari oshgan tarzda kapital oshishini ta'minlash;

Qimmatli qog'ozlar bilan investitsion aktiv operatsiyalarga quyidagilar kiradi:

- investitsiyalash maqsadida aksiyalarga mablag' kiritish;
- qisqa muddatli aksiyalarga va obligatsiyalarga mablag' kiritish;
- veksellar hisobi-veksel egasi yoki emitentidan veksel so'ndirilish muddatiga qadar diskont stavkada sotib olish;
- REPO operatsiyalari-qimmatli qog'ozlarni qaytib sotish sharti bilan sotib olish.



1.2-rasm. Investitsiyalarning tasniflanishi.⁵

⁵ Butikov I. "Qimmatli qog'ozlar bozori". -M.: Delo, 2001y. 44-b.

1.2-rasmda ko'rinib turibdiki, investitsiyalar kiritish obyektlari bo'yicha, amaliy yo'nalishlari bo'yicha, investitsiyalash subyektlari bo'yicha, yo'naltirish sohasi va obyektlari bo'yicha, investitsiyalar maqsadlari va ular bilan bog'liq bo'lgan risklar bo'yicha hamda takror ishlab chiqarish bo'yicha tasniflanadi. Qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish quyidagi bosqichlarga ega:

- 1.Portfel turini aniqlash va uning xarakterini baholash;
- 2.Investitsion portfel riskini aniqlash;
- 3.Portfel tuzilmasini shakllantirish;
- 4.Portfel tuzilmasini optimallashtirish.

Bankning qimmatli qog'ozlar bilan asosiy 3 turga ajratiladi:

- aktiv
- passiv
- vositachilik

Asosiy passiv operatsiyalar:

- Xususiy vekselar bo'yicha xizmat ko'rsatish, ularni muomalaga chiqarish yoki sotish;
- Xususiy aksiyalarni emissiya qilish va ular bo'yicha xizmat ko'rsatish.
- Depozit va jamg'arma sertifikatlarini sotish va sotib olish.

Qimmatli qog'ozlar bozorida banklarning vositachilik operatsiyalari banklarga juda azaldan berilgan va mustahkamlanib, hozirgi vaqtda ham saqlanib qolgan. O'zbekiston fond bozori shakllanishi davri (1991—1994 yillar)da ko'pgina tijorat banklari ayni mana shu vazifaga katta e'tibor berishgan. Banklar brokerlik idoralariga ega bo'lib, ular (mijoz hisobidan va uning topshirig'i bo'yicha) fond birjasida hamda birjadan tashqari aksiyalar bozorida dilerlik va brokerlik operatsiyalarini amalga oshirib, buning uchun vositachilik haqi olishgan. Tijorat banklari uchun korporativ qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilish oddiy kredit berishga nisbatan katta xatar bilan bog'liqdir. Shu sababli O'zbekistondagi ko'pgina tijorat banklari, ayniqsa 1993—1995 yillarda korporativ qimmatli qog'ozlar bozorida o'zlarini nihoyatda ehtiyotlik bilan tutdilar. Lekin 2000-yil

boshiga kelib, O'zbekistondagi banklar ushbu bozorda o'zlarini ancha dadil his qildilar.

1996 yil martidan boshlab kredit muassasalari davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO) bilan dilerlik va brokerlik operatsiyalarini amalga oshira boshladilar. Buning ustiga vositachilik xizmatlari ko'rsatish bozorida banklar umuman olganda anchagina foydali holatda bo'ldilar, chunki hozirgi vaqtga qadar ham DQMO bozorida faqat tijorat banklarigagina yo'l ochiq. Banklarning vositachilik operatsiyalari tarkibida vositachilik haqi evaziga qimmatli qog'ozlar bilan bitimlarni ro'yxatdan o'tkazish vazifasini alohida ajratish mumkin. Bitim yagona hisob yuritish ro'yxati (registri)da qayd etiladi va bitim qatnashchilari — bank mijozlari (qimmatli qog'ozlarni xarid qiluvchi va sotuvchi) ro'yxatdan o'tish to'g'risida qayd etilgan shartnomani oladilar. Ro'yxatdan o'tkazilgan barcha bitimlar to'g'risidagi axborotni banklar qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi organga davriy ravishda topshirib turadilar.

Investitsiyalar bilan shug'ullanayotgan vaqtda o'z harakatlaringizni siyosatini ishlab chiqish zarur va quyidagilarni aniqlashtirish kerak:

- investitsiyaning asosiy maqsadlari (uning xususiyati strategik yoki portfel ko'rinishida bo'ladi);

- investitsion portfelni shakllantirish, qabul qilinadigan qimmatli qog'ozlarning turlari;

- investitsion portfelni sifatliiligini va portfelni diversifikatsiyasi va shu kabilar.

Agar bank brokerlik operatsiyalarini amalga oshiradigan bo'lsa, u har bir mijoz uchun hisobraqam ochishi va mijozning qimmatli qog'ozlari bilan amalga oshirilgan barcha operatsiyalarga doir ma'lumotlarni yozib borishi, bunda qimmatli qog'ozlarning turi, operatsiyalar sanasi, sotilgan va xarid qilingan qimmatli qog'ozlarning narxi va sonini ko'rsatishi shart. Ko'pgina hollarda banklarning fond bozoridagi faoliyatini investitsiya kompaniyalari ish faoliyati bilan tenglashtirish mumkin. Banklar aksiyalar, obligatsiyalar, depozit va jamg'arma (omonat) sertifikatlarini chiqaradi, shu tarzda mablaglarni jalb etib, resurslar yaratib, keyinchalik bu resurslarni korporativ va davlat qimmatli

qog'ozlariga investitsiya qilib hamda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni amalga oshirib, ulardan foydalanadi. O'zbekistonda tijorat banklariga andarrayting bilan shug'ulanish man etilmagan. Shunday qilib, tijorat banklari investitsiya kompaniyalari vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishi mumkin.

1.3. Tijorat banklari investitsiya faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar

Davlatning yuritayotgan investitsiya siyosati natijasining qanday samaraga ega ekanligi mamlakatdagi investitsion faoliyatning rivojlanish holati bilan belgilanadi. Shu sababli, odatda, har qanday investitsion siyosatning maqsadi mavjud investitsion faoliyatning rivojlanish istiqboliga qaratiladi.

Respublikamizda ishlab chiqarishni rivojlantirish, qayta qurollantirish, modernizatsiya qilish, yangi ish o'rinlarini yaratishda tijorat banklarining o'rni nihoyat katta. Tijorat banklarning kredit portfelida investitsion kreditlarning ulushini oshirish investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyati yuqori darajadiligini bildiradi.

Strategik xorijiy investorlarni jalb etish maqsadida mamlakatimizda investorlarning o'zi uchun ham, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun ham noyob kafolatlar tizimi yaratildi.

Avvalo, davlat tomonidan xorijiy investorlarning barcha huquqlari ta'minlanmoqda, ularning sarmoyalari, mamlakatimiz hududida ular tomonidan yaratilgan mulkning daxlsizligi kafolatlanmoqda, yaratilayotgan imtiyoz va preferensiyalarni kengaytirish va liberallashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Investitsiyalarning o'sish sur'atlari ko'p omillarga bog'liq. Avvalambor, investitsiyalar hajmi olingan daromadni iste'mol va jamg'armaga taqsimlanishiga bog'liq. Aholini o'rtacha daromadi past bo'lgan holda ularning asosiy qismi (70-80%) iste'molga sarflanadi. Aholi daromadlarini o'sib borishi jamg'arishga yuboriladigan qismni ortib borishiga sabab bo'ladi. Umumiy daromadda jamg'arish ulushining ortib borishi investitsiyalar hajmini o'sishiga olib keladi, va

aksincha. Ammo bu shart aholini davlatga ishonchi yuqori bo'lganda, davlat fuqarolarning investitsion faolligini ta'minlaganda va kafolatlaganda bajariladi. Investitsiyalar hajmiga kutilayotgan daromad normasi ham ta'sir ko'rsatadi, chunki ko'rilayotgan foyda investitsiyalashga undaydi. Kutilayotgan foyda normasi qanchalik yuqori bo'lsa, investitsiyalash hajmi shunchalik yuqori bo'ladi, va aksincha.

Investitsiyalar hajmiga ssuda foizi stavkasi katta ta'sir ko'rsatadi, chunki investitsiyalash jarayonida qarzga olingan mablag'laridan ham foydalaniladi. Agar kutilayotgan sof foyda normasi o'rtacha ssuda foizi stavkasidan yuqori bo'lsa bu qo'yilmalar investor uchun daromadlidir. Shuning uchun o'rtacha foiz stavkasini o'sishi investitsiyalash jarayonini susayishiga olib keladi.

Investitsiyalar hajmiga kutilayotgan inflyatsiya sur'atlari ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa investorning kelajakdagi foydasi shunchalik qadrsizlanadi va investitsiyalarni rag'batlantiruvchi omillar qisqarib boradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya resurslari manbalari makro va mikro darajada farqlanishidan qat'iy nazar mamlakat investitsiya bozorida o'ziga xos mavqega va iqtisodiy chegaralarga ega. Bozor munosabati sharoitida investitsiya resurslari sharoitida kreditlar o'ta muhim strategik ahamiyatga ega, chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning o'z mablag' manbalari cheklangan bo'lib asosan joriy xarajatlarni qo'plash uchun sarfalanadi, qolgan qismi esa cheklangan mablag' sifatida investitsiyani faoliyatini cheklab qo'yadi. Shu bois hozirda investitsiya bozorida taklifni, nafaqat, barqarorlashtirish balki yetarli miqdorda oshirish uchun uning manbalari tarkibida davlat ulushini kamaytirgan holda chet el kreditlari va mahalliy banklar kreditlarini oshirish maqsadga muvofiqdir. Albatta, investitsiya kiritilgandan keyin uni qay darajada ekanligini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa buxgalteriya rentabelligini aniqlash usuli orqali aniqlanadi.

Ko'pgina davlatlarda banklar qimmatli qog'ozlarni birlamchi tarqatish vaqtida qimmatli qog'ozlarni chiqarish va ularni birlamchi joylashtirishni tashkil

etishda vositachilar sifatida faol ish olib boradi. Banklarning qimmatli qog'ozlarni xususiy joylashtirish bo'yicha vazifasi (matbuotda e'lon qilmasdan va obunachilar keng ko'lamining ishtirokisiz) keng tarqaldi. Rossiya Federatsiyasida, masalan, investitsiya banklari mavjud bo'lmagani tufayli, tijorat banklari emitentlar uchun hujjatlarni va qimmatli qog'ozlar chiqarish shartlarini ishlab chiqadi, fond bozorini tartibga soluvchi organda qimmatli qog'ozlar chiqarishning ro'yxatdan o'tkazilishini kuzatadi, sarmoyadorlarni qidirib topish bilan shug'ullanadi, birlamchi tarqatishni amalga oshiradi, qog'ozlarni chiqarish yakuni to'g'risida hisobot tuzadi, qimmatli qog'ozlarning sotilishini kafolatlaydi.

Rivojlanayotgan davlatlarda bank xatarlari boshqaruvi: Mahalliy banklarning noyob muammolarini hal qilish rivojlanayotgan mamlakatlarda mahalliy banklar iqtisodiyotning barcha tarmoqlari uchun moliyaviy xizmatlarni taqdim etishi va ayni paytda milliy iqtisodiy rivojlanish siyosatiga qanday hissa qo'shishiga oid dolzarb manbalarni taqdim etadi.

Ushbu turdagi banklar ko'pincha talabga javob bo'lgan sohalarga ta'sir qilganligi bois, odatda xorijiy filiallardan ajralib turadi va shuning uchun chet elga asoslangan banklarga murojaat qilmaydigan xavf modellariga muhtojdir.⁶

Bozor munosabatlari rivojlangan davlatlarda bank tizimi iqtisodiy tizimning muhim va ajralmas tarkibiy qismi sifatida shakllandi va taraqqiyotining bugungi darajasigacha yetib keldi. Kuchli raqobat muhitida faoliyat ko'rsatish tijorat banklariga mijozlar qiziqishlarini hisobga olgan holda xizmat ko'rsatishning yangi turlari va usullarini joriy etish, ayniqsa, qimmatli qog'ozlar bozorida turli xil xizmatlar ko'rsatish va operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq jarayonlarning yuzaga kelishiga olib keldi. Quyida biz qimmatli qog'ozlar bozorida va investitsiya jarayonlarida tijorat banklarining rolini shakllantiruvchi tamoyillarning mazmun-mohiyatini ifodalab o'tamiz:

1. Bank faoliyatining iqtisodiy mustaqilligi. Bu tamoyilning mohiyati banklar o'z va jalb etilgan mablag'laridan foydalanishda, mijozlarni va

⁶ Bank Risk Management in Developing Economies Addressing the Unique Challenges of Domestic Banks through Risk Management Book 2017.

omonatchilarni tanlashda, investitsiya siyosatini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda, turli xil emitentlarning qimmatli qog'ozlarini sotib olish yoki sotishda, foiz stavkalarini o'rnatishda, umuman olganda, bank operatsiyalarini amalga oshirishga doir qarorlarni amalga oshirishdagi mustaqilligi bilan belgilanadi.

2. Bank faoliyatining qonunchilikka mutanosibliigi. Zamonaviy bank-kredit tizimi murakkab va ko'p qirrali tuzilishga ega bo'lib, tarixan bank tizimining shakllanishi ular tomonidan ko'rsatiladigan ayrim xizmat turlarining ba'zi davlatlarda qonun hujjatlari bilan ta'qiqlanishi natijasida segmentlashgan va universal bank tuzilishining paydo bo'lishiga olib keldi. Segmentlashgan tuzilish moliya tashkilotlarining alohida turdagi funksiyalari va operatsiyalari faoliyatini qonuniy jihatdan ajratishni nazarda tutadi. Bunday tuzilish AQSh va Yaponiyada yuzaga kelib, depozitlar qabul qilish va qisqa muddatli kreditlarni berish kabi bank operatsiyalari qonuniy jihatdan sanoat kompaniyalarining qimmatli qog'ozlarini chiqarish va ularni joylashtirish va boshqa maxsus xizmat turlarini ko'rsatishdan (sug'urtalash, ko'chmas mulk bilan bitimlar va h.k.) ajratib qo'yildi.

3. Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati va operatsiyalari bilan bog'liq ma'lumotlarning shaffofligi. Ko'pgina rivojlangan davlatlarda mavjud qonunchilikka asosan, qimmatli qog'ozlar emitentlari tomonidan oshkor etilishi talab qilinadigan barcha ma'lumotlar yuzasidan qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtiruvchi organ qattiq nazorat olib boradi va bunday axborotlarni oshkor etmagan emitentlarga nisbatan qattiq choralar ko'radi. Bunday choralarning ko'rilishi qimmatli qog'ozlar bozorida investorlar, shu jumladan, tijorat banklariga ham qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar amalga oshirish yuzasidan ma'lum bir qarorga kelishda muhim rol o'ynaydi. Fond bozorida qimmatli qog'ozlar bo'yicha aniq va to'liq ma'lumotga ega bo'lish imkoniyati qimmatli qog'ozlar bozorining shaffofligini ta'minlaydi.

4. Bank investitsiya portfelining daromadliligi va risk darajasining optimalligi omili. Keyingi paytlarda tijorat banklari daromadlarining shakllanishida ularning investitsiya faoliyati va qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalaridan oladigan daromadlari muhim rol o'ynamoqda. Mazkur holat

banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini kengaytirish va bank aktivlarini diversifikatsiya qilish maqsadidan kelib chiqmoqda. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga mablag'larni investitsiya qilish va qimmatli qog'ozlar bilan «spekulyativ» operatsiyalarni amalga oshirishi turli xil risklar bilan bog'liq. Banklar tomonidan investitsiya portfelini shakllantirishda qo'yilmalarning daromadliligi va xavfsizligini ta'minlash orqali optimal balanslashtirilgan investitsiya portfelining tashkil etilishi bu risklardan chetlab o'tish imkonini beradi.

5. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida raqobatbardoshligi. Tijorat banklari universal moliya-kredit institutlari sifatida qimmatli qog'ozlar bozorining faol ishtirokchilari hisoblanadi. Jahon amaliyoti tajribasidan kelib chiqib, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishtirokini quyidagi 3 ta turga bo'lib o'rganish mumkin. Bular:

- amerikacha model;
- yevropacha model;
- aralash model.

Amerikacha model AQSh, Yaponiya, Kanada singari davlatlar bank amaliyotida shakllangan bo'lib, unga ko'ra tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati qonuniy jihatdan cheklangan. Bu borada AQShda tijorat banklari faoliyatiga oid 1933 yilda qabul qilingan "Glass-Stigoll" qonuniga ("Banklar faoliyati to'g'risida"gi qonun) asosan, sanoat kompaniyalarining aksiyalari va obligatsiyalarini chiqarishda ishtirok etish va o'z mablag'larini bunday kompaniyalarning qimmatli qog'ozlariga investitsiyalash man etilgan va aksincha, fond bozorida faoliyat ko'rsatish uchun yirik brokerlik kompaniyalariga keng imkoniyatlar berilgan. Lekin shu bilan birgalikda mazkur qonun tijorat banklariga davlat qimmatli qog'ozlari, munitsipal obligatsiyalar chiqarilishini va joylashtirilishini tashkil etish, shu bilan birgalikda, mijozlarning topshirig'iga ko'ra hamda ularning mablag'lari hisobiga qimmatli qog'ozlar bilan ayrim vositachilik funksiyalarini amalga oshirishga ruhsat berildi.

Yevropacha model, asosan, Germaniyaga xos boʻlib, 1961-yilda qabul qilingan «Banklar toʻgʻrisida»gi qonunga asosan, tijorat banklariga qimmatli qogʻozlar bilan barcha turdagi operatsiyalarni amalga oshirishga keng imkoniyat berilgan. Shunga koʻra, Germaniya tijorat banklari qimmatli qogʻozlar bozorida emitent, vositachi va yirik investorlar sifatida qatnashishlari mumkin. Germaniya, Belgiya, Fransiya va Buyuk Britaniyada tijorat banklariga aksariyat moliyaviy faoliyat turlari bilan shugʻullanishga ruxsat etilgan. Aksincha, AQSh va Yaponiyada tijorat banklariga bunday operatsiyalarni amalga oshirish, asosan, taʼqiqlangan. Kanada va Italiya tijorat banklariga esa ayrim moliyaviy faoliyat turlarini amalga oshirishga ruhsat berilgan boʻlsa, ayrimlari man etilgan. AQShda potensial qarz oluvchining kreditni toʻlay olish qobiliyatini baholash uchun va tegishli maʼnoda kredit riskini kamaytirish uchun 5ʻSʻ deb nomlanuvchi yondashuv qoʻllanilib, uning asosida riskni baholashning quyidagi mezonlari yotadi⁷:

- mijozning obroʻsi - customer character;
- toʻlay olish qobiliyati - capacity to pay;
- kapitali - capital;
- ssudani taʼminlanganligi - collateral;
- iqtisodiy konʻyuktura va uning istiqbollari - current business;
- conditions and goodwill.

Aralash model oʻtish iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi (MDH) davlatlari fond bozorlarida yuzaga kelib, u fond birjasining nobank investitsiya institutlariga bogʻlanib qolishining oldini olish va unda raqobat muhitini yaratish maqsadida qimmatli qogʻozlar bozorida faoliyat koʻrsatish uchun tijorat banklariga keng oʻrin berilgan. Tijorat banklarining qimmatli qogʻozlar bozorida kuchli raqobat muhitida faoliyat koʻrsatishi har bir bankdan ularning bu bozordagi faoliyati bilan bogʻliq risklarni oldindan his qila bilishi, buning uchun esa, banklar oʻz investitsiya siyosatini toʻgʻri ishlab chiqish masalasini zaruriyat qilib qoʻyadi. Oqilona ishlab chiqilgan investitsiya siyosati

⁷База знаний “Allbest”.

banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi va ma'lum bir daromadga ega bo'lishi uchun asos hisoblanadi.

Mijozlar va investorlarning manfaatini himoya qilish hamda ta'minlash. Ko'pchilik rivojlangan davlatlarda qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solishda asosiy e'tibor investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratiladi. Shuning uchun tijorat banklari o'z qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirishda ustuvor ahamiyatni moliyaviy aktivlarning likvidligiga qaratishlari lozim. Bunday harakat bank faoliyatining o'ziga xosligidan kelib chiqadi va boshqalardan farqli o'laroq, uning zahirida kreditor va omonatchilarning manfaatlarini ta'minlash va himoya qilish yotadi. Bu borada asosiy e'tibor mayda investorlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lishi zarur.

Tijorat banklarining emissiya, investitsiya, foiz stavka siyosatlari mutanosibligi va uyg'unligi. Bank resurslarini shakllantirishda qimmatli qog'ozlar ahamiyatining oshib borayotganligi, eng avvalo, ko'pchilik tijorat banklarining aksiyadorlik jamiyati ko'rinishida faoliyat ko'rsatayotganligi va banklar o'z aksiyalarini emissiya qilishi va ularni joylashtirishi asosida mablag'larni cheklanmagan muddatga jalb qilishida namoyon bo'lmoqda. Bundan tashqari, banklar resurslarga bo'lgan uzoq muddatli talabni qondirishda obligatsiyalarni, qisqa va o'rta muddatli talabni qondirishda esa depozit va jamg'arma sertifikatlari hamda veksellarni muomalaga chiqarishlari mumkin. Yuqorida qayd etilgan operatsiyalar tijorat banklarining o'z mablag'larini shakllantirish va qarz mablag'larini jalb qilish bilan bog'liq passiv operatsiyalarini ifodalaydi va bunday harakatlar bankning emissiya siyosatidan kelib chiqadi.

Tijorat banklarining investitsiya siyosati bankning o'z va jalb qilingan mablag'larini kreditga berish bilan bir qatorda turli xil qimmatli qog'ozlarga, istiqbolli investitsiya loyihalarini amalga oshirish bilan bog'liq yangi tashkil etilayotgan korxonalarning ustav kapitalida ulush qo'shib qatnashish orqali doimiy ravishda daromad (dividend yoki foiz ko'rinishida) keltiruvchi sohalarga kiritish kabi aktiv operatsiyalarida namoyon bo'ladi.

Tijorat banklarining foiz siyosati esa, uning emissiya va investitsiya siyosatini birgalikda qo'shib olib borishdan kelib chiqadi. Tijorat banklari tomonidan depozit va jamg'arma sertifikatlar, veksellar va obligatsiyalarning muomalaga chiqarilishi hamda ularning joylashtirilishi bunday qimmatli qog'ozlarga to'lanadigan foiz (dividend, diskont) miqdoriga bog'liq bo'lib, qimmatli qog'ozlarga foiz stavkasini belgilash investorlarning mablag'larini jalb qilish imkoniyati nuqtai nazaridan yondashishni talab etadi. Bank oldidagi navbatdagi eng asosiy vazifa qimmatli qog'ozlarning so'ndirilishi muddati va ularga to'lanadigan foiz (dividend, diskont) miqdorini hisobga olgan holda joriy daromad keltiruvchi boshqa qimmatli qog'ozlarga yoki sohalarga mablag'larni kiritish hisoblanadi.

Bank likvidligini qanday o'lchashni bilish uchun bankning moliyaviy hisobotini tushunish muhimdir. Moliyaviy bo'lmagan kompaniyalarning moliyaviy hisobotlaridan juda farq bo'lgani uchun yirik moliyaviy bo'lmagan firma, yirik tijorat banki va kichik tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari o'rtasidagi farqlar qisqacha tahlil qilinadi. Asosiy mahsulot, moliyaviy jadvallar firma turlariga nisbatan qanday farq qilishini chuqurroq tushuniladi.⁸

Banklarning aktivlari portfeli yaxshi tuzilgan, yuqori sifatli va foydali bo'lishi kerak. Aktivlar portfelini boshqarish samaradorligi strategik resurs, shuningdek, bankning kapitallashuv, likvidlik va rentabellikning talab darajasida bo'lishida muhim omil hisoblanadi. Xavf aktivlarining sifati, xususan, bankning kapitalga bo'lgan talablarini qondirishga bog'liqdir. Aktivlarning aksariyati xavf-xatarli va daromadli bo'lganligi sababli, bank o'z aktivlari portfeli bilan chalkashib ketishi mumkin emas.⁹

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda shuni qayd etish joizki, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati ularning mazkur bozorda rolini shakllantiruvchi tamoyillar va iqtisodiy shart-sharoitlarga

⁸ Bank Liquidity Creation and Financial Crises New Perspectives Book 2015.

⁹ Bank Risk Management in Developing Economies Addressing the Unique Challenges of Domestic Banks through Risk Management Book 2017.

bevosita bog'liq bo'lib, afsuski, ularning ko'pchiligi respublikamizda hali to'liq shakllangan emas.

Avval qayd etilganidek, banklar investitsiya muassasalari vazifalarini bajarishi mumkin. Turli mamlakatlarda tijorat banklari buni qimmatli qog'ozlar bozorini umumiy nazorat etadigan organning ruhsati bilan yoki davlat bosh bankidan bank faoliyatini amalga oshirish uchun olinadigan umumiy litsenziya (ruhsatnoma) doirasida amalga oshiradi. O'zbekistonda banklar qonuniy jihatdan qayd etilgan tijorat banklari va investitsiya banklariga ajratilmagan, shu sababli tijorat banklari investitsiya muassasalariga xos bo'lgan vazifalarni erkin bajaryapti. Banklar qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni Markaziy bank tomonidan beriladigan umumiy litsenziya asosida amalga oshirishlari mumkin. Litsenziyada ko'rsatilgan banklar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar ro'yxatida qimmatli qog'ozlar bilan olib boriladigan faoliyat maxsus qayd etilgan bo'lishi kerak.

Banklar qimmatli qog'ozlar bilan faoliyatini amalga oshirish uchun quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatishi lozim:

- qimmatli qog'ozlar bilan rejalashtirilayotgan faoliyatning batafsil tavsifi, ushbu faoliyatni amalga oshirishda bank qanday siyosat olib borishi va qanday tadbirlardan foydalanmoqchi ekanligi;

- bunday faoliyat ustidan o'rnatiladigan ichki nazorat turlari va unga qo'yiladigan talablar;

- qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshiradigan shaxslar uchun bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish va cheklashlar bo'yicha vakolatlar;

- qimmatli qog'ozlar bilan bitimlarni amalga oshiradigan shaxslarga qo'yiladigan malakaviy talablar;


- bankning ichki hisob yuritish va hisobot tuzish ishlariga rahbarlik qilish;

- qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar monitoringi bo'yicha axborotlashtirish tizimiga qo'yiladigan talablar.

Bugungi kunda mamlakatimizda va umuman, chet el amaliyotida banklarning eng asosiy daromad keltiruvchi aktiv operatsiyasi kredit bo'lib kelmoqda. Biroq,

riskni jilovlash va diversifikatsiyani oshirish maqsadida banklar boshqa turli operatsiyalar ko‘lamini ham oshirib bormoqdalar. Xususan, O‘zbekistonda ham banklarning kredit va investitsiya portfellari ham mos ravishda hajm va sifat jihatdan ortib bormoqda.

Iqtisodiyotning real sektoriga yo‘naltirilgan kredit qo‘yilmalari hajmi 2017 yilda 25,1 foizga oshib, 53,4 trln. so‘mga yetdi. Mazkur kreditlarning 80 foizini investitsiyaviy maqsadlarga yo‘naltirilgan uzoq muddatli kreditlar tashkil etdi (1.3-rasm).



1.3-rasm. Tijorat banklarining kredit qo‘yilmalari dinamikasi (mlrd so‘m)¹⁰.

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki veb-sahifasi.


Qayd etish lozimki, tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning 86,8 foizi ichki manbalar hisobidan moliyalashtirilmoqda. Bu esa tijorat banklarining hamda umuman, mamlakatimiz bank tizimining yetarli darajada shakllangan resurs bazasiga ega ekanligidan va har qanday tashqi omillarning salbiy ta’sirlaridan himoyalanganligidan dalolat beradi.

Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan investitsion kreditlar hajmi 2017 yilda ham barqaror sur’atlarda o’sib bordi. Ular asosan «2015-2019 yillarda ustuvor ravishda iqtisodiyotning sanoat tarmoqlarini tarkibiy

¹⁰<http://www.cbu.uz>

o'zgartirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirishga qaratilgan Davlat dasturlari»ga kiritilgan investitsion loyihalarni moliyalashtirish maqsadlariga yo'naltirilmoqda.

Xususan, 2017 yil davomida korxonalarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash maqsadlariga tijorat banklari tomonidan jami 12,2 trln. so'm yoki 2016 yilga nisbatan 1,2 barobar ko'p investitsion kreditlar ajratildi (1.4-rasm).



1.4-rasm. Investitsion kreditlar dinamikasi, trln so'm¹¹.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki veb-sahifasi.

Shu bilan birga, qishloq aholi punktlari arxitektura-rejalashtirish qiyofasini tubdan yaxshilash, namunaviy loyihalar asosida uy-joylar qurilishi ko'lamini kengaytirish orqali qishloq aholisi hayot sifati va darajasini oshirish, qishloq joylarida transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish maqsadida 2017 yilda tijorat banklari tomonidan 13 mingta yakka tartibdagi uy-joylar qurilishi uchun 1,6 trln. so'mlik kredit mablag'lari ajratildi.

Bundan tashqari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, ularga qulayliklar

¹¹<http://www.cbu.uz>

yaratish maqsadida tijorat banklarining barcha filiallarida “Tadbirkorlar xonasi” tashkil etilib, ushbu xonalarda malakali mutaxassislar tomonidan tadbirkorlarga kreditlar ajratish, bank xizmatlari ko‘rsatish, biznesni yo‘lga qo‘yish va yanada rivojlantirish yuzasidan zarur maslahatlar berib borilmoqda.

Birinchi bob bo‘yicha xulosa

Chuqur qayta qurollantirish hamda yangi ishlab chiqarishni tashkil etish va ochishda kredit resurslarini jalb qilish dolzarb masaladir, chunki ularni hammasini amalga oshirish yirik moliyaviy imkoniyatlarni talab etadi. Mazkur moliyalashtirish masalasining yechimi korxonalarga investitsion kreditlar berish bilan ta’riflanadi.

Investitsion kreditlar bu ishlab chiqarish yoki ijtimoiy maqsadlar uchun mo‘ljallangan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, texnik qayta jihozlashga oid xarajatlar bilan bog‘liq kapital qo‘yilmalarni moliyalash, texnika, texnologiyalar va uskunalarni xarid qilish, shuningdek, boshqa investitsiya maqsadlari uchun mo‘ljallangan kreditlardir.

Huquqiy shart-sharoitlarni yaxshilash maqsadida respublikamizda “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi, “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi, “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari qabul qilinishi, bundan tashqari Respublikamiz Prezidenti tomonidan 2010 yil 26 noyabrda “2011-2015 yillarda respublika moliya bank tizimini yanada isloh kilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yunalishlari to‘g‘risida”gi va 2009 yil 28 iyulda “Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yunaltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko‘paytirishni rag‘batlantirish borasidagi ko‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlarining qabul qilinishi investitsiya jarayonlarini huquqiy jihatdan yanada takomillashishiga zamin yaratadi.

II-BOB. TIJORAT BANKLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SOHALARDAGI INVESTISION FAOLIYATI TAHLILI

2.1. Ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi “Ipoteka-bank” ATIBning asosiy moliyaviy va iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari tarmoqlarining kengayishi tufayli, ular orasida - depozitlarga, banklararo kreditlarga va boshqa bank resurslariga raqobatning kuchayishi vujudga keladi. Bank ishini omadli yuritish - uning faoliyatini to‘g‘ri tashkil etilganligiga - unga ta’sisчилari va mijozlari tomonidan bo‘lgan ishonch va bankning barqaror ekanligiga bog‘liq.

Tijorat banklari o‘zlarida mavjud moliyaviy resurslardan samarali foydalanishlari orqali oladigan daromadlari qanchalik barqarorlashib boraversa, avvalo ularning faoliyatlari kengayib borishiga hamda resurs bazasini yanada kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bank faoliyatining barqaror bo‘lishi uning bank operatsiyalari barcha turlarini muvaffaqiyatli ravishda o‘tkazish imkonini beradi.

Bankni o‘z sarmoyasining uning mablag‘lari tarkibidagi roli bankning barqarorligi va faoliyatining samaradorligini ta’minlash uchun g‘oyat muhimdir. Bankning o‘z sarmoyasi - bu birinchidan, moliyaviy resurslarning manbasidir va bu ayniqsa bank faolatining boshlanish bosqichida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Bankni o‘z sarmoyasining yana bir muhim vazifasi-himoya kafolatlash vazifasidir. Sarmoya bankning kutilmagan yo‘qotishlari yoki xarajatlari vujudga kelgan taqdirda o‘z operatsiyalarini davom ettirish imkonini beruvchi o‘ziga xos amortizator vazifasini bajardi.

Hozirgi kunda respublikamizda bank sarmoyasi xalqaro amaliyotdagi singari asosiy va qo‘shimcha sarmoyasidan tashkil topadi. Asosiy sarmoya tarkibiga aksionerlik sarmoyasi va taqsimlanmagan foyda kirsas, qo‘shimcha sarmoya tarkibiga umumiy maqsadlarga mo‘ljallangan rezervlar, devalvatsiya zaxiralari, ssudalar bo‘yicha yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan zaxiralar uchun rezervlar kiritiladi.

Tijorat banklari resurslarini boshqarish – bankning resurslarga bo‘lgan ehtiyoji va likvidligini to‘liq ta’minlash hamda samarali aktiv operatsiyalarga joylashtirish uchun yetarli miqdordagi barqaror resurslarga bo‘lgan talabni qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatdir.

2.1.-jadval

“Ipoteka bank” ATIB resurslari tarkibi (mln.so‘mda)¹²

Yillar	Jami resurslar	Kapital miqdori	Majburiyat miqdori
2012	2 187 914,0	156 842,0	2 031 072,0
2013	3 634 370,0	193 689,0	3 440 681,0
2014	4 545 147,0	233 770,0	4 311 377,0
2015	3 292 096,0	287 320,0	3 004 776,0
2016	4 404 519,0	360 924,0	4 043 595,0
2017	5 304 078,0	460 148,0	5 288 203,0

Manba: “Ipoteka-bank” ATIBning yillik hisobotlari

Yuqoridagi jadvalni tahlil qilish natijasida “Ipoteka bank” ATIB ning jami resurslar bazasi xar yili muntazam o‘sib borayotganini (2015 yildan tashqari) ko‘rishimiz mumkin. Bu esa bankning kapitali va majburiyatlari miqdorining yildan yilga oshib borayotganligi natijasidir.

¹² “Ipoteka-bank” ATIBning yillik hisobotlari.

Ya'ni 2017 yilda 2016 yilga nisbatan bank resurslari 899 559,0 mln.so'mga, bank kapitali 99 224,0 mln.so'mga, bank majburiyatlari 1 244 608,0 mln.so'mga oshgan.

2.2-jadval

“Ipoteka bank” ATIB daromadlari tarkibi (mln.so'mda)¹³

Yillar	Jami daromad	Foizli daromad		Foizsiz daromad	
		Miqdori	ulushi, %	miqdori	ulushi, %
2012	213 077	94 790	44	118 287	56
2013	285 583	135 456	47	150 127	53
2014	349 969	181 235	52	168 734	48
2015	446 001	250 938	56	195 063	44
2016	559 605	308 469	55	251 136	45
2017	685 869	373 336	54	312 533	46

Manba: “Ipoteka-bank” ATIBning yillik hisobotlari

Yuqoridagi jadvalni tahlil qilish natijasida “Ipoteka bank” ATIB ning jami daromadlari o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Daromadlar tarkibida so'nggi yillarda foizli daromadlar ulushi yuqori (54 foiz) ekanligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida tijorat banklarining xarajatlari uch yirik guruhga ajratiladi: Foizli xarajatlar, Foizsiz xarajatlar, Operatsion xarajatlar.

Quyidagi 2.3-jadvalni tahlil qilish natijasida “Ipoteka bank” ATIB ning jami xarajatlari o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Xarajatlar tarkibida barcha yillarda operatsion xarajatlar ulushi yuqori (53 foiz) ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari foizli xarajatlar ham salmog'i (39 foiz) bo'yicha keyingi o'rinlarni egallaydi.

¹³ “Ipoteka-bank” ATIBning yillik hisobotlari.

2.3-jadval

“Ipoteka bank” ATIB xarajatlari tarkibi. (mln.so‘mda)¹⁴

Yillar	Jami xarajat	Foizli xarajat		Foizssiz xarajat		Operatsion xarajat		Zahira xarajati	
		miqdori	ulushi, %	miqdori	ulushi, %	miqdori	ulushi, %	miqdori	ulushi, %
2012	182 671	43 653	25%	16 040	9%	108 112	60%	8 970	6%
2013	245 695	63 532	27%	23 349	10%	138 678	57%	13 415	6%
2014	303 485	87 014	30%	22 142	7%	172 200	58%	14 355	5%
2015	392 176	126 210	33%	26 713	8%	206 934	54%	19 004	5%
2016	498 649	169 749	35%	34 063	8%	246 581	50%	31 681	7%
2017	558 334	217 233	39%	43 859	8%	296 798	53%	444	0,1%

Manba: “Ipoteka-bank” ATIBning yillik hisobotlari


¹⁴ “Ipoteka-bank” ATIBning yillik hisobotlari.

2017 yilda kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida Ipoteka-bank tomonidan, ularga 1 313,0 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20 foizga o'sishiga erishildi. Ajratilgan kreditlar hisobiga kichik biznes vakillari tomonidan 20 764 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi. Kichik biznes vakillari orasida Ipoteka-bankning ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, qurilish sohalarini rivojlantirish uchun yo'naltiriladigan mikrokreditlariga talab yildan yilga ortib bormoqda. Zero, tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun, boshlang'ich sarmoyani bank tomonidan berilishi, kichik korxonalar ochishda qo'l kelishi shubhasiz. 2017 yil davomida bankimiz tomonidan umumiy summasi qariyb 289,8 mlrd. so'mlik mikrokreditlar ajratildi. Ajratilgan kreditlarni yo'nalishlar qirqimida ko'radigan bo'lsak, kreditlar ham iqtisodiy, ham ijtimoiy jihatdan muhim bo'lgan yo'nalishlarga ajratilmoqda. Masalan, bankning barcha filiallari orqali ayol tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida qariyb 146,8 mlrd. so'mlik kreditlar ajratildi. Sanoat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirishga, iqtisodiyotning aksariyat ulushi qishloq xo'jaligi bilan bog'lanib qolgan viloyatlarda nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish uchun 278,1 mlrd. so'm va servis sohasini rivojlantirish uchun 198,4 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida 167,8 mlrd. so'mlik kreditlar ajratildi, bu esa o'z navbatida aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xalqimiz ishbilarmonlik ko'nikmalarini mustahkamlash, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish maqsadida 21,6 mlrd. so'm, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining tadbirkorlik loyihalari uchun 33,8 mlrd. so'm, yosh oilalarga o'z bizneslarini tashkil qilish uchun 19,7 mlrd. so'm miqdorida mikrokreditlar ajratildi. Bank tomonidan berilgan jami ipoteka kreditlari 1 326,1 mlrd. so'm bo'lib, shuning 391,5 mlrd. so'mi 2017 yil davomida berildi. 2017 yil davomida 516 ta yosh oilalarga jami 69,9 mlrd. so'mlik ipoteka kreditlari ajratildi. 2017 yil davomida umumiy ajratilgan ipoteka kreditlarining 18 foizi yosh oilalarga ajratilgan ipoteka kreditlaridir.

“Ipoteka kreditlari berishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi” mablag‘lari hisobidan 20,3 mlrd.so‘m mablag‘ olingan bo‘lib, bank tomonidan 987 ta yosh oilalarga 19,9 mlrd.so‘mlik imtiyozli kreditlar ajratilgan.

Germaniya “KFV” kredit liniyasi hisobidan 328 ta oilaga 13,4 mlrd.so‘m (5 mln. EVRO) miqdorida ipoteka kreditlari ajratilgan.

Qishloq joylarda namunaviy uy-joylarni qurish hamda ushbu uy-joylarni aholiga ipoteka krediti hisobiga rasmiylashtirish maqsadida 2013-2017 yillar mobaynida 6 781 ta oilaga jami 774,3 mlrd.so‘m miqdorida ipoteka kreditlari ajratilgan.




2.1-rasm. Kichik biznesga ajratilgan kreditlar (mlrd. so‘mda)¹⁵

Manba: “Ipoteka bank” ATIBning yillik hisobotlari

Yuqoridagi diagrammani tahlil qilish natijasida “Ipoteka bank” ATIBda kichik biznesga ajratilgan kreditlar o‘sish tendensiyasiga ega. Bunda 2017 yilda 2013 yilga nisbatan 2,6 baravariga, 2016 yilga nisbatan 1,3 baravariga o‘sishi kuzatilmoqda.

¹⁵ “Ipoteka-bank” ATIBning yillik hisobotlari.



2.2-rasm. Kichik biznesga ajratilgan mikrokreditlar (mlrd. soʻmda)¹⁶

Manba: “Ipoteka bank” ATIBning yillik hisobotlari

Yuqoridagi diagrammani tahlil qilish natijasida kichik biznesga ajratilgan mikrokreditlar boʻyicha 2017 yilda 2016 yilga nisbatan 15 %, 2013 yilga nisbatan 2,4 baravariga oʻsishi kuzatilmoqda.

2018 yil 1 iyun holatiga koʻra, kichik biznesga jami 754 623,3 mlrd. soʻm kredit, 161 719,2 mlrd.soʻm mikrokreditlar, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining tadbirkorlik loyihalari uchun 13,8 mlrd. soʻm, yosh oilalarga oʻz bizneslarini tashkil qilish uchun 14,7 mlrd.soʻm miqdorida mikrokreditlar ajratildi.

¹⁶ “Ipoteka-bank” ATIBning yillik hisobotlari.

2.2. «Ipoteka-bank» ATIBning investitsion faoliyati samaradorligining iqtisodiy faollikka ta'siri

Iqtisodiyotimizga xorijiy va mahalliy sarmoyalarni jalb qilish, bugungi kunda, shubhasiz yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish borasida o'ziga xos mablag' manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Shu sababli, mamlakatimiz hukumati tomonidan ushbu masalaga keng miqyosda e'tibor qaratilib, bu borada bir qator qaror va farmonlarning hayotga tadbiq qilinayotganligi, xorijiy va mahalliy sarmoyalarni jalb qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yurtimizga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda banklarning kapitallashuv darajasi muhim ahamiyatga ega. Bu esa tijorat banklarining korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashdagi investitsiya jarayonlarida keng ishtirok etishi, shu asosda raqobatbardosh, eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va aholi bandligini oshirishni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda qo'l keladi. Shuningdek, tijorat banki kapitalining doimiy o'sishi orqali xorijiy banklarning ishonchini qozonishga erishiladi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizga yanada ko'proq xorijiy banklarning mablag'larini jalb qilishga zamin yaratadi.

Ipoteka-bank mamlakatimizning yetakchi banklaridan biri sifatida yirik investitsiya loyihalarini moliyalash imkoniyatiga ega. 2017 yilda bank faoliyatida investitsion loyihalarni tanlash, tahlil qilish, ularni milliy va xorijiy valyutada kreditlash ishlari yanada rivojlandi. Bunda asosiy e'tibor korxona va tashkilotlarning ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va iqtisodiyotning boshqa real sektorlari yo'nalishidagi zamonaviy texnologiyalarni respublikamizga kiritish hamda yangi ishchi o'rinlarini yaratishga yo'naltirilgan loyihalarni moliyalashtirishga qaratilmoqda. Investitsiya dasturi doirasida iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonida banklarning moliyaviy ko'magi katta bo'lmoqda. Bank ham bu borada yetarlicha sarmoya yo'naltirib, ishlab chiqarish jarayonining kengayishi, korxonalar faoliyatining yuksalishiga qo'shayotgan hissasi yil sayin ortmoqda. Jumladan, bank tomonidan 2017 yil mobaynida

624,1 mlrd. soʻmlik investitsion xarakterga ega boʻlgan kreditlar ajratilib, yil yakunida investitsion kreditlar portfeli 2295,3 mlrd soʻmni tashkil etdi. Ipoteka-bankning investitsion loyihalarni moliyalash bilan bogʻliq saʼy-harakatlari bank mijozlarining eksportbop, jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining oʻsishiga xizmat qildi. Iqtisodiyotimizning turli tarmoqlarini yanada qoʻllab-quvvatlash, bu borada chet el investitsiyalarini faol jalb qilish maqsadida xorijiy kredit liniyalari orqali kreditlash tizimi yanada takomillashtirildi. 2017 yilda Germaniyaning “Landes Bank Baden-Wuerttemberg”ning 60 mln. AQSh dollari ekvivalenti (50 mln. yevro) miqdorida hamda “Kommertsbank”ning 120 mln.AQSh dollari ekvivalenti (100 mln.evro) miqdoridagi mablagʻlarini jalb qilish boʻyicha kelishuvlar imzolandi. Bundan tashqari Islom Korporatsiyasidan 10,0 mln. AQSh dollari, Xalqaro taraqqiyot jamgʻarmasidan 2,0 mln. AQSh dollari, Koreya Eksimbankining 10,0 mln. AQSh dollarlik kredit liniyalari jalb etildi. 2018 yilda Yaponiyaning J-USBP liniyasi boʻyicha 100,0 mlrd.AQSh dollari miqdorida investitsiya jalb qilinishi rejalashtirilgan.

2017 yil davomida J-USBP liniyasi orqali 113 418,7 mlrd.soʻm kreditlar ajratilgan. Bu koʻrsatkich 2016 yilda 76 329,5 mlrd.soʻmni tashkil etdi. 2018 yil 1 iyun holatiga 168 840,7 mlrd.soʻmni tashkil etdi.

Oʻzbekiston Respublikasining xoʻjalik yurituvchi subyektlari va chet ellik subyektlar oʻrtasidagi tuzilgan tashqi savdo shartnomalari (eksport, import va barter) quyidagilarni istisno qilgan holda, vakolatli bankda roʻyxatga olinadi:

- yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanuvchi shaxslarning importga oid shartnomalari;
- mamlakat tovar-xomashyo birjasida milliy valyutada tuzilgan shartnomalar;
- xorijiy sarmoyali korxonalar tomonidan ustav kapitalni shakllantirish maqsadida tovarlar olib kirish bilan bogʻliq bitimlar.

“Ipoteka bank” ATIB oʻz mijozlari va hamkorlariga diling amaliyotlari jabhasida turli xizmatlarni koʻrsatib kelmoqda. Jumladan:

- mijozlar va bank kontragentlarning xorijiy valyutadagi mabalag'larini jalb qilish va joylashtirish;
- asosiy xalqaro valyutalarining naqd banknotalari bilan savdo amaliyotlari;
- USD, EUR, JPY singari asosiy xalqaro valyutalari bo'yicha SPOT shartlari asosida konversion amaliyotlarni amalga oshirish.

“Ipoteka bank” ATIB xalqaro to'lovlarni sifatli amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida bir qator xorijiy banklar bilan vakillik munosabatlarini o'rnatgan. Jumladan: JP Morgan Chase, Commerzbank, Landesbank Berlin, HypoVereinsbank (UniCredit), Sredit Suisse, Promsvyazbank, VTB Bank, Standard Chartered Bank, Bank of Tokyo Mitsubishi. Eksport bilan shug'ullanuvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida 2018 yil 1 yanvar holatiga 220 ta eksporter korxonalar hisobiga 485,7 mln. AQSh dollari miqdorida valyuta tushumi kelib tushdi. Bundan 170,5 mln. AQSh dollari miqdorida majburiy sotuv amalga oshirildi (2017 yil 1 yanvar holatiga 195 ta eksporter korxonalarning hisobiga 518,7 mln. AQSh dollari miqdorida eksport tushumi kelib tushgan va bundan 224,9 mln. AQSh dollari miqdorida majburiy sotuv amalga oshirilgan).

2018 yil 1 yanvar holatiga tarmoqlar qirqimida eksport tushumi:

- 403,8 mln. AQSh dollari – rangli va qora metallar;
- 27,4 mln. AQSh dollari – tekstil mahsulotlari;
- 44,0 mln. AQSh dollari – ishlar va xizmatlar;
- 1,2 mln. AQSh dollari – qurilish mollari;
- 1,4 mln. AQSh dollari – dori-darmon vositalari va xalk iste'mol mollari;
- 7,9 mln. AQSh dollari – boshqa turdagi mahsulotlar.

2.4-jadval

**“Ipoteka bank” ATIB mijozlarining 2017 yilda amalga oshirilgan
eksport va import operatsiyalari haqida ma’lumot (mln. so‘mda)¹⁷**

	Ko‘rsatkichlar	2016 yil	2017 yil	2016 yilga nisbatan o‘shish	
		fakt	fakt	summada	foiz
1	Eksport tushumi mavjud korxonalar soni	195	220	25	13%
2	Shu jumladan ekportyor kichik biznes sub’ektlar soni	145	167	22	15%
3	Jami eksport tushumi, mln. doll.	519	486	-33	-6%
4	Shu jumladan kichik biznes eksport tushumi, mln. doll.	31	45	14	44%
5	Import qiluvchi korxonalar soni	272	283	11	4%
6	Shu jumladan importyor kichik biznes sub’ektlar soni	188	216	28	15%
7	Jami import tushumi	348	573	224	64%
8	Shu jumladan kichik biznes importi, mln. doll.	46	89	44	96%

Manba: “Ipoteka bank” ATIBning yillik hisobotlari

Ipoteka-bank tomonidan xizmat ko‘rsatilayotgan eksporter korxonalar hisobiga 2018 yil 1 yanvar holatiga kelib tushgan valyuta tushumining 45,2 mln. AQSh dollari miqdoridagi qismi kichik biznes vakillari zimmasiga to‘g‘ri kelib, ularning soni 167 tani tashkil etmoqda.

¹⁷ “Ipoteka-bank” ATIBning yillik hisobotlari.

Shu bilan birga eksport bilan shug'ullanuvchi kichik biznes subyektlariga moliyaviy ko'mak berish maqsadida ularga 20,0 mlrd. so'm va 651 ming AQSh dollari ekvivalenti miqdorida kreditlar ajratilgan.

«Ipoteka-bank» ATIB mamlakatimizda mavjud davlat dasturlarida belgilangan vazifalarni izchil va namunali bajarishni maqsad qilgan. Shu ma'noda aholiga uy-joy masalasida sifatli bank xizmatlarini ko'rsatish faoliyatning ustuvor yo'nalishi sanaladi. Shu bois, joylarda bankning ixtisoslashgan xizmatlaridan keng foydalanilishini ta'minlaydigan filiallar shoxobchasini rivojlantirish, zamonaviy, tejimli, bozorda talab yuqori bo'lgan qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarga kredit ajratish kabi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunga qadar bankning aholi uchun bergan jami ipoteka kreditlari miqdori 1 326,1 mlrd. so'mga yetdi va shundan 391,5 mlrd. so'm 2017 yil davomida ajratildi. Binobarin, bank yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashda imtiyozli kreditlar ajratmoqda. Misol uchun, o'tgan yil davomida 516 ta yosh oilaga jami 69,9 mlrd. so'mlik ipoteka kreditlari ajratildi, bu umumiy ajratilgan ipoteka kreditlarining 59 foizini tashkil etdi. Qurilish tashkilotlarini kredit mablag'lari bilan ta'minlash maqsadida Ipoteka-banki 2005-2017 yillar davomida turar joy binolari qurilishini moliyalashtirish uchun tashkilotlarga jami 435,2 mlrd. so'm miqdorida kredit mablag'larini ajratdi. Natijada, viloyatlar markazi va Toshkent shahrida 5338 ta xonadondan iborat 172 ta turar joy binosi qurilib foydalanishga topshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 22 noyabrdagi 2660-sonli «2017-2020 yillar uchun shaharlarda arzon ko'p kvartirali uy-joylarni qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha dasturni amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq Toshkent shahri va viloyat markazlarida ijtimoiy yo'nalishda uy-joyga zarurati bor, uy-joy sharoitlarini yaxshilashga ehtiyojmand oilalar uchun turar joy binolari qurilishi boshlab yuborildi. Mazkur uy-joylarni moliyalashtiruvchi bank sifatida «Ipoteka-bank» belgilangan.

Hokimliklar qoshidagi hududiy komissiya tomonidan kvartiralar uy-joyga ehtiyoji bor deb tan olingan fuqarolarga ajratilishi rejalashtirilgan. Eng asosiy

masala uylarning bahosi va ipoteka kredit shartlari haqida to'xtalsak. Mazkur uylar uy-joyga muhtoj, shuningdek uy-joy sharoitini yaxshilashga ehtiyojmand jismoniy shaxslarga ko'p kvartirali uydagi xonadonni sotib olish uchun ipoteka kreditlari 20 yil muddatga, 3 yil imtiyozli davr bilan, kreditdan foydalanganlik uchun dastlabki 5 yil davomida yillik 7 foiz va qolgan davrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasi miqdorida ajratiladi. Bunda oltinchi yildan boshlab foiz stavkasi kredit olish uchun ariza taqdim etilgan sanadagi Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasidan kelib chiqib belgilanadi.

Shu bilan birga, Davlat tomonidan quruvchi tashkilotlar uchun ham, uy-joy sotib oluvchi jismoniy shaxslar hamda uning oila a'zolari uchun ham soliq imtiyozlari beriladi. Ya'ni, jismoniy shaxsning hamda uning oila a'zolari (umr yo'ldoshi, ota-onasi, bolalari)ning soliq ushlab qolinadigan daromadlari tarkibiga quyidagilar kiritilmaydi:

Birinchidan, ko'p qavatli uy-joydagi kvartirani sotib olish uchun olingan ipoteka krediti va uning foizlarini so'ndirish uchun yo'naltiriladigan ish haqi mablag'lari va boshqa daromadlar;

Ikkinchidan, ish beruvchi tashkilot yoki xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan ko'p qavatli uy-joydan kvartira sotib olish uchun ajratilgan mablag'lar shular jumlasidandir.

Xususan, 2017-2020 yillarda shaharlarda ko'p kvartirali uylarni qurish va rekonstruksiya qilish dasturiga muvofiq 4 yil davomida jami 42 165 ta xonadondan iborat 945 ta uy-joylar barpo etilishi ko'zda tutilmoqda.

Birgina 2018 yil yakuniga qadar «Ipoteka-bank» tomonidan 8 121 xonadonli 474 ming kvadrat metrdan iborat 191 ta ko'p kvartirali uy-joylar qurilishi moliyalashtirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2009 yil 3 avgustdagi «Qishloq joylarda uy-joy qurilishi ko'lamini kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1167-sonli Qaroriga muvofiq, qishloq joylarda namunaviy uy-joylar qurish hamda ushbu turar joylarni aholiga ipoteka krediti


hisobiga rasmiylashtirish maqsadida 2013–2017 yillar mobaynida 6 794 ta oilaga jami 773,2 mlrd. so‘m miqdorida ipoteka kreditlari ajratildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrdagi «2017-2021 yillarda qishloq joylarida yangilangan namunaviy loyihalar bo‘yicha arzon uy-joylar qurish Dasturi to‘g‘risida»gi PQ-2639- sonli Qaroriga asosan, 2017 yilda «Ipoteka-bank» ATIB tomonidan 1 497 ta (472 ta ko‘p qavatli turar joy binolaridagi kvartiralar, 303 ta ikki sotixli, 626 ta to‘rt sotixli va 96 ta olti sotixli yakka tartibdagi uy-joylar) namunaviy uy-joylar qurilishi va aholiga ipoteka kreditlari sifatida ajratilish orqali moliyalashtirilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, qarorda belgi-langanidek, uy-joy qurilishi uchun ipoteka krediti berishni rivojlantirishga xorijiy investitsiyalar, xalqaro va mahalliy moliya institutlari investitsiya hamda grantlarini jalb etish, zamonaviy, tejamli, bozorda talab yuqori bo‘lgan qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarni kredit bilan ta‘minlash kabi vazifalar ijrosi yuzasidan salmoqli ishlar bajarildi. Bu borada bank xorijiy investorlar mablag‘larini jalb qilish bo‘yicha Xalqaro Moliya korporatsiyasi, KFW Germaniya banki, Osiyo Taraqqiyot banklari bilan hamkorlikda ish olib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Germaniya Federativ Respublikasi Hukumati o‘rtasida moliyaviy hamkorlik doirasida Moliya sektorini qo‘llab-quvvatlash Dasturini amalga oshirish maqsadida Germaniya «KfV» Taraqqiyot bankining 10 yil imtiyozli davr bilan 40 yil muddatga jami 17,3 mln. yevro miqdorida kredit liniyasini jalb qilish to‘g‘risidagi ahdlashuvga erishildi. Ushbu kredit liniyasi hisobidan Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi bilan ipoteka yo‘nalishi uchun 5,0 mln. yevro miqdoridagi kredit shartnomasi imzolanib, ushbu mablag‘lar bank tomonidan to‘liq o‘zlashtirildi. Mazkur kredit shartnomasi shartlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, bank kredit liniyasini 12 yil muddatga 3 yillik im- tiyozli davr va 7 foiz ustama haq to‘lash sharti bilan jalb qilgan.

«Ipoteka-bank» zamonaviy, tejamli, bozorda talab yuqori bo‘lgan qurilish materiallari ishlab chiqarishni ko‘paytirish uchun ushbu yo‘nalishda faoliyat yurituvchi korxonalarga kreditlar ajratmoqda. Xususan, 2010-2016 yillar davomida

644 ta korxonaga jami 309,2 mlrd. so‘m miqdorida kredit xizmatlari ko‘rsatildi. Bu boradagi ezgu sa’y-harakatlar o‘tgan yili ham izchil davom ettirildi. 2017 yil davomida qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi 126 ta korxonaga jami 345 mlrd. so‘mlik kreditlar ajratildi. Pirovardida, bozorda talab yuqori bo‘lgan qurilish materiallari ham ichki, ham tashqi bozor uchun ishlab chiqarilmoqda. Va aynan shu orqali mamlakat iqtisodiyotida eksport ko‘lamini oshirish bilan bog‘liq rejalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar samarasi o‘laroq, ushbu sohaning respublikamiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi izchil o‘sib bormoqda. Mavjud imkoniyatlar ichki iste’mol bozorini yanada rivojlantirish, raqobatbardosh va sifatli mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish hamda yangi ish o‘rinlari yaratilishini ta’minlanmoqda.



2.3-rasm. Kredit portfelining tarmoqlar bo‘yicha tarkibi (mlrd. so‘mda)¹⁸

Manba: Ipoteka-bankining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2.3-rasmdan ko‘rinib turibdiki, 2017 yilga qadar Ipoteka bank turli sohalar bo‘yicha kreditlar ajratgan. Shu jumladan, sanoatga 2 229,3 mlrd.so‘m, savdo va

¹⁸ Rasm muallif tomonidan tayyorlangan.

umumiy ovqatlanishga 325,4 mlrd.so'm va qurilishga 296,0 mlrd.so'm kredit ajratilgan.

Bu borada kichik biznes vakillari har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotgani, xususan, ular faoliyati jadal rivojlanishida banklar ajratayotgan kreditlar alohida ahamiyatga egadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi PQ-2344- sonli Qarori ilovasidagi chora-tadbirlar dasturiga asosan, 2016-2020 yillar davomida banklar tomonidan kichik biznes vakillariga ajratiladigan kreditlar hajmini 2,5 barobar o'stirish belgilangan edi. «Ipoteka-bank» ATIB ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishda makzur Qarorga muvofiq faol ish olib bormoqda.

Xususan, 2018 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, bankning tadbirkorlik subyektlariga ajratgan kreditlari miqdori 1 313,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Buni o'tgan yilning mos davri bilan solishtiradigan bo'lsak, tadbirkorlar uchun ajratilgan kredit mablag'lari 178,8 mlrd. so'm yoki 1,2 barobar ortganini ko'rish mumkin. Kreditlar evaziga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari 20 764 ta yangi ish o'rni yaratganligi e'tiborga molikdir. Kichik biznes vakillariga mikrokreditlar ajratish borasida ham bank izchil sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda. Birgina 2017 yil davomida tadbirkorlik subyektlariga 289,8 mlrd. so'mlik mikrokredit mablag'lari ajratilib, belgilangan reja 3,3 mlrd. so'mga ortig'i bilan bajarildi. Ushbu raqamlarni o'tgan yilning mos davri bilan solishtiradigan bo'lsak, o'sish sur'ati 1,2 barobarni tashkil etganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Milliy iqtisodiyot rivojida xotin-qizlar ishtirokini yanada oshirish va ularning tadbirkorlik faoliyatini moliya- lashtirish borasida bank qator loyihalarni hayotga tatbiq qilmoqda. Xususan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi ayollarga ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish uchun 2017 yil davomida 146,8 mlrd. so'mlik kredit mablag'lari ajratildi. Bu bilan «Ipoteka-bank» belgilangan rejani 3,6 mlrd. so'm yoki 3 foiz oshig'i bilan bajardi. Mazkur kredit mablag'larini 2016 yilning mos davri bilan solishtiradigan bo'lsak, o'sish sur'ati 1,2 barobar ekanligi ko'zga tashlanadi.

Bugun yurtimizda oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanib, muvaffaqiyatga erishayotgan yurtdoshlarimiz ko'plab topiladi. Shu kabi ishbilarmon oilalarni Ipoteka-banki ham moliyaviy qo'llab-quvvatlamoda. Birgina 2018 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish uchun 21,6 mlrd. so'mlik kreditlar ajratildi. Oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi subyektlarga taqdim etilgan kreditlarni 2017 yil 1 yanvar holati bilan solishtiradigan bo'lsak, o'sish sur'ati 1,3 barobarni ko'rsatdi.

Yurt kelajagi sanalmish yoshlar har jabhada hukumatimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Ayniqsa, tadbirkorlik bilan shug'ullanishni maqsad qilgan kollej bitiruvchilarining biznes rejalari respublika tijorat banklari tomonidan moliyalashtirilib, ularga kerakli biznes maslahatlar berilmoqda. «Ipoteka-bank» ATIB ham 2017 yili kasb-hunar kollejaribitiruvchilariga tadbirkorlik loyihalari uchun 33,8 mlrd. so'm miqdoridagi mikrokredit mablag'larini ajratdi. Bank bu bilan o'z oldiga qo'ygan rejani 1,3 mlrd. so'm yoki 5 foiz ortig'i bilan bajardi. Pirovardida, 1167 nafar kollej bitiruvchisiga maqsadli kredit mablag'lari ajratildi. Kollej bitiruvchilariga ajratilgan kreditlar miqdorini 2016 yil 1 yanvar holati bilan solishtiradigan bo'lsak, taqdim etilgan mikrokreditlar miqdori 1,3 barobar o'sganini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 26 yanvardagi «Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi va 2009 yil 28 yanvardagi «Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlariga asosan, Ipoteka-banki 2018 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarga 167,8 mlrd. so'm, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarga esa 278,1 mlrd. so'mlik kredit mablag'larini taqdim etdi. Bu albatta, milliy iqtisodiyotda import o'rnini bosuvchi, eksportbop mahsulotlar sifati va miqdori ortishiga xizmat qilmoqda.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Mamlakatimizda olib borilayotgan moliya-bank tizimidagi islohotlar natijasida bugun yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan bank muassasalari katta-kichik sanoat korxonalari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari, fermer xo'jaliklarining ishonchli hamkoriga aylandi. Negaki, yalpi ichki mahsulot hajmi, aholi real ish haqi va daromadlarining o'sishida, yurtimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning jahon bozorida o'z xaridoriga ega bo'lishida, ijtimoiy obyektlar hamda turar-joy binolari barpo etishdek keng ko'lamli bunyodkorlik ishlarida qo'lga kiritilayotgan ulkan yutuqlarda aynan bank muassasalarining moliyaviy ko'magi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“Ipoteka bank” 10 yildan buyon mamlakat moliya tizimining faol va yirik ishtirokchisi sifatida yirik korxonalar, kichik biznes subyektlari hamda yurtimiz aholisiga bank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.

Bankning mamlakat iqtisodiyotidagi salohiyatini oshirish, bankning universal faoliyatini rivojlantirib borish, chakana xizmatlar ko'lamini oshirish, uy-joy qurilishi sohasidagi faoliyati, xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, kadrlar siyosatining ustuvorliklari kabilar bugungi kunda “Ipoteka bank” ATIB strategiyasining asosiy bo'g'inlari hisoblanadi.

“Ipoteka bank” ATIB missiyasi — o'z aksiyadorlari va bank mijozlari uchun eng yuqori darajadagi iqtisodiy qadriyatlarni yaratishdan iborat. Mijozlarga xizmat ko'rsatishning yuqori sifati va tanlangan bozorlardagi etakchilik, kelajakdagi bank muvaffaqiyati uchun birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Bankning korporativ qadriyatlari — jamoaviy ruh, yangicha fikrlash, ijobiy munosabat, ajoyib sifat — bank missiyasini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Mijozlarga keng ko'lamdagi bank xizmatlarini taqdim etgan holda, bank mamlakat iqtisodini ko'tarish va rivojlantirish uchun asoslar va sharoitlarni yaratishga ko'maklashishga intiladi. O'z mijozlariga xizmatlarni taqdim etishda “Ipoteka bank” ATIB professionalizmning yuqori standartlariga muvofiq bo'lish, yangiliklarni qo'llash, yangi g'oyalarga ochiqlik, fikrlardan foydalanish hamda qat'iy va izchil faoliyatni amalga oshirishga sodiqdir.

“Ipoteka bank” ATIB faoliyati ko‘rsatkichlarining ijobiy o‘zgarishlari bankda boshqaruv va bank ishi olib borilishi jarayoni to‘g‘ri tashkil qilinganligi bo‘yicha xulosa qilishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda endilikda hal etilishi lozim bo‘lgan vazifalarni xam keltirish mumkin:

- Bankda so‘nggi yillarda yangi kredit shakllari joriy qilinmaganligini ko‘rish mumkin. Endilikda yangi kredit turlarini joriy etish yoki mavjud kredit shakllari shartlarini qayta ko‘rib chiqish orqali kredit bozoridagi raqobatda o‘z o‘rnini mustahkamlash mumkin;

- Bank xizmatlarini avtomatlashtirish darajasini oshirish orqali mijozlarga qulayliklar yaratish. Bunda “Internet banking”, “Sms banking” xizmatlarini takomillashtirish muxim ahamiyatga ega;

- Bankga yangi salohiyatli mijozlarni jalb qilish uchun bank xizmatlari ko‘rsatish tariflarini va foiz siyosatida mijozlarning o‘ziga xosligini xisobga olgan holda yangi tariflarini joriy etish zarur.

III-BOB. TIJORAT BANKLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SOHALARDAGI INVESTISION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

3.1. Ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni rivojlantirishda tijorat banklari investitsion kreditlarining rolini oshirish

Tijorat banklarinig kapitallashuv darajasini yanada oshirish, ushbu sohaga xususiy kapitalni jalb etish, depozit bazasini kengaytirish, iqtisodiyotga yo'naltirilayotgan kreditlar hajmini oshirish va banklarning investitsiya jarayonlardagi ishtirokini yanada kengaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kreditlar ajratish mexanizmini yanada soddalashtirish hamda ularga ajratilgan kreditlar hajmini oshirish, avvalambor, investitsiya maqsadlariga, boshlang'ich sarmoyani shakllantirishga, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda texnologik yangilash uchun uzoq muddatli kreditlar berishni rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda investitsion loyihalarni amalga oshirishda banklarning investitsion kreditlash ulushi yetarli miqdorda emas. Tijorat banklari tomonidan investitsion kreditlash operatsiyalarini to'la-to'kis olib borish ular tomonidan investitsion kredit siyosatining qay darajada tuzilganligiga bog'liq. Har bir bank siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa jihatlarni hisobga olgan holda o'z investitsion kredit siyosatini shakllantirishi bank kreditlashining muhim jihati hisoblanadi.

Shu jihatdan olganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da bank tizimini takomillashtirish bo'yicha aniq vazafalar muhim voqelik hisoblanadi. Bundan ko'zlangan maqsad — olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyat rivojini yangi bosqichga ko'tarish, iqtisodiyotning barcha sohalarini liberallashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish bo'yicha eng muhim ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirishdan iborat. Hujjatda qayd etilishicha, mamlakat bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili bugungi

kunda jahon bozorida konyunktura o'zgarib, raqobat tobora kuchayib borayotganini har tomonlama hisobga olishni, shu asosda davlatni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha strategik yondashuv va tamoyillarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Bu o'z navbatida, iqtisodiyotning real sektorini kreditlash xususan, investitsion kreditlash kabi asosiy vazifalarni kun tartibiga qo'yadi va mazkur ilmiy maqola mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda tijorat banklari investitsion kreditlarining muhim o'rin tutishi iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy jihatdan isbotlab berilgan. Xususan, J.M.Keyns pullar taklifining o'sishi natijasida foiz stavkasining pasayishini yuz berishi va buning natijasida investitsiyalarning muqobil qiymati pasayib, firma va kompaniyalarning rejali investitsiyalari hajmini oshirishini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Rossiyalik taniqli iqtisodchi olim T.Mazurina iqtisodiyotning real sektorini tijorat banklari kreditlari hisobidan kreditlashni rivojlantirish uchun quyidagi shart-sharoitlarning mavjud bo'lishini asoslab bergan:

- davlatning samarali investitsiya va sanoat siyosatining mavjudligi (moliyaviy resurslarni aniq joylashtirish yo'nalishlari ko'rsatilgan holda);
- investitsiya loyihalarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan risklarni qisqartirish asosiy yo'nalishi bo'lgan investitsiyalar infratuzilmasini rivojlantirish;
- korxonalarning investitsion jozibadorligini oshirish.

I.Yudinaning ilmiy tadqiqotlari natijalariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlash amaliyotini rivojlantirishning zaruriy sharti – bu risklarni diversifikatsiya qilishdir.

O'zbek olimlaridan professorlar D.G'ozibekov, T.Boboqulov, N.Karimovlar ham tijorat banklari investitsion kreditlash salohiyati va uni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq masalalarni tadbiq etgan hamda ilmiy jihatdan quyidagi takliflarni berishgan:

- investitsion loyihada statistik hisobotga qo'yiladigan talabning qisqartirilishi, talab etilayotgan ma'lumotlarni umumlashtirish, ya'ni ishlab chiqaruvchilar faoliyatini imkon qadar mustaqilligini ta'minlash;

- loyihani bajarishda mas'ul xodimlar uchun o'z qarorlari yuzasidan bo'ladigan javobgarliklar birmuncha oshirilishi lozim, shunda ularning noqonuniy xatti-harakatlariga bir qadar chek qo'yiladi;

- yangi taklif etilayotgan loyihada jahon bozoriga chiqish strategiyasini birlamchi maqsad qilib belgilab olish.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilishning ilk bosqichlaridanoq, tijorat banklarining investitsion kreditlar berish salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmonlari va qarorlarida tijorat banklarining investitsion kreditlar berish salohiyatini oshirishga qaratilgan tadbirlar belgilandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 iyuldagi PQ-1166-sonli "Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasida qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq:

- tijorat banklari tomonidan Markaziy bankda deponentlanadigan majburiy zaxira stavkalarining eng kam miqdori 2009 yil 1 sentyabrdan boshlab, majburiy rezerv shakllantiriladigan majburiyatlarga kiruvchi milliy va xorijiy valyutada jalb qilingan depozitlar bo'yicha quyidagi miqdorlarda belgilandi:

- muddati 1 yildan 3 yilgacha bo'lgan depozitlar bo'yicha – 12 foiz miqdorida;

- muddati 3 yildan ortiq bo'lgan depozitlar bo'yicha – 10,5 foiz miqdorida;

- boshqa depozitlar bo'yicha – 15 foiz miqdorida.

- tijorat banklarining depozitlariga va qimmatli qarz qog'ozlariga 1 yildan ortiq muddatga joylashtirishdan olinadigan foizli daromadlari bo'yicha yuridik shaxslar besh yil muddatga soliqqa tortishdan;

- tijorat banklari avval berilgan kreditlarni to'lash hisobiga undirib olinadigan mulkni sotishda qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan;

- lizing xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar 2009 yilning 1 sentyabridan boshlab uch yil muddatga foyda solig'i va lizing operatsiyalaridan tushadigan daromadlar bo'yicha yagona soliq to'lovidan ozod etildi.


Shuningdek, tijorat banklarining resurs bazasini, shu jumladan, uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlash orqali ularning investitsion kreditlar berish salohiyatini oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi PQ-2344-sonli "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori muhim rol o'ynaydi.

Mazkur qarorda tijorat banklarining uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish yo'li bilan ularning uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifalari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning qabul qilinganligi va unda bakan tizimini yanada isloh qilish va resurs bazasini mustahkamlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni belgilanganligi respublikamiz tijorat banklarining kreditlash salohiyatini 2017-2021 yillarda mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

Yuqorida qayd etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi respublikamiz tijorat banklarining investitsion kreditlari hajmini yillar davomida oshib borish tendensiyasini yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Ushbu holatni quyidagi rasm ma'lumotlari yaqqol ko'rsatadi (3.1-rasm).

3.1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2013-2017 yillarda respublikamiz tijorat banklarining kredit portfelida uzoq muddatli kreditlarning salmog'i yuqori bo'lgani holda, ushbu ko'rsatkichning o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Bu esa, tijorat banklarining investitsion kreditlar berish salohiyatini mazkur davr mobaynida oshib borganligidan dalolat beradi.



3.1-rasm. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kredit portfelida uzoq muddatli kreditlarning ulushi (foizda)¹⁹

Manba: Pul-kredit siyosati. www.cbu.uz.

Yuqorida qayd etilgan ijobiy jihatlar bilan birga, respublikamiz tijorat banklari investitsion kreditlarining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi rolini oshirish bilan bog'liq ayrim muammolarning mavjudligini e'tirof etish joiz. Ana shunday muammolardan biri – bu milliy valyutaning qadrsizlanish sur'atining yuqori ekanligidir.

Milliy valyutaning qadrsizlanish sur'atining yuqori ekanligi tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilayotgan uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarning investitsion jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish maqsadida xorijiy valyutalarda berilgan investitsion kreditlarni o'z vaqtida qaytarishga to'sqinlik qilmoqda.

Olib borilgan tahlillar va tadqiqotlar Respublika tijorat banklarining investitsion kreditlash salohiyatining yetarli darajada emasligini ko'rsatdi.

Fikrimizcha tijorat banklari investitsion salohiyatini oshirishda quyidagi muammolar mavjud:

¹⁹ <http://www.mb.uz>

1. Tijorat banklarida uzoq muddatli barqaror resurs bazasining yoʻqligi. Aholining banklarga qoʻyilgan omonat mablagʻlarining katta qismini talab qilib olinadigan mablagʻlar tashkil etadi. Bu esa nobarqaror manba hisoblanadi.

2. Tijorat banklarining investitsion kreditlashdan manfaatdorligining pastligi, 2010-2016 yillarda Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi doimiy tushirilib 9 foizni tashkil etkani va banklar uzoq muddatli kreditlashda ushbu foiz stavkasiga keskin bogʻlangan holda kredit qiymati belgilanildi.

Tijorat banklari investitsion kreditlarining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi rolini oshirish borasidagi muammolardan yana biri boʻlib, tijorat banklarida uzoq muddatli resurslarning yetishmasligi hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi tijorat banklari passivlarining 70 foizdan ortiq qismini qisqa muddatli passivlar tashkil qilgani holda, ular kreditlarining 80 foizini uzoq muddatli kreditlar tashkil etmoqda. Bu esa, banklarda uzoq muddatli resurslarning taqchilligi muammosining mavjudligidan dalolat beradi.

Oʻz navbatida, tijorat banklarida uzoq muddatli resurslar taqchilligining mavjudligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

- Markaziy bankning majburiy zaxira stavkalarining nisbatan yuqori ekanligi (2017 yilning 1 iyul holatiga koʻra, Markaziy bank majburiy zaxira stavkalarining oʻrtacha darajasi 12,5 foizni tashkil etdi);

- tijorat banklari uzoq muddatli qimmatli qogʻozlarining investitsion jozibadorligining taʼminlanmaganligi;

- aholining pul mablagʻlarini tijorat banklariga jalb etib, ularni investitsiyalarga transformatsiya qilish jarayonining sust ekanligi;

- milliy valyutaning qadrsizlanish surʼatining yuqori ekanligi;

- yalpi ichki mahsulot deflyatori darajasining yuqori ekanligi.

Fikrimizcha, respublikamiz tijorat banklari investitsion kreditlarining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi rolini oshirish uchun quyidani chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Pul-kredit siyosatini, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish natijalariga tayangan holda, takomillashtirish yo'li bilan milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash lozim.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda markaziy banklar pullar taklifini tartibga solishda ochiq bozor operatsiyalaridan keng miqyosda foydalanadilar. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ochiq bozor operatsiyalari mavjud emas. Buning ustiga, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi bilan tijorat banklari depozitlari va kreditlarining foiz stavkalari o'rtasidagi bog'liqlik mavjud emas.

2. Tijorat banklarining uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlash maqsadida, birinchidan, banklar tomonidan muomalaga chiqariladigan qimmatli qog'ozlarning investitsion jozibadorligini ta'minlash lozim; ikkinchidan, tijorat banklarining qisqa muddatli resurslarini uzoq muddatli resurslarga aylantirib berish imkonini beradigan qayta moliyalashtirish mexanizmini yaratish zarur; uchinchidan, majburiy zaxira talabnomalarining bazaviy stavkasini (15%) pasaytirish yo'li bilan tijorat banklarining uzoq muddatli depozitlariga nisbatan belgilangan majburiy zaxira stavkasini pasaytirish lozim.

3.2. Ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni moliyalashtirishda investitsion kreditlardan samarali foydalanish yo'llari

Mustaqillik yillarida iqtisodiyotning muhim bo'g'inlaridan hisoblangan bank tizimi va alohida olingan tijorat banklarining samarali faoliyat ko'rsatishiga katta e'tibor berila boshlandi.

Loyihalarni moliyalashtirishda investitsion kreditlardan foydalanish jarayonida hali o'z yechimini topmagan muammolar mavjud.

Kreditlarning hajmi va soni oshgan sayin kreditning qaytmaslik xatari ham osha borishi bank amaliyotida ma'lum hodisadir.

Investitsion kredit riskini yuzaga kelishiga quyidagi hollar sabab bo'ladi:

a) turli xil makro va mikro iqtisodiy omillar, iqtisodiy qonunchilik va me'yorlardagi o'zgarishlar;

b) qarz oluvchi faoliyatida bo'ladigan iqtisodiy va siyosiy muhitdagi o'zgarishlar, salbiy hollar tufayli olingan kreditni to'lashga mos pul oqimini tashkil qila olmaslik;

v) investitsion kreditni ta'minlanganligi uchun olingan garovning qiymati va sifati bo'yicha to'liq ishonchning yo'qligi;

g) yuqori bilimga ega bo'lgan bank xodimlari va mijozlarning yetishmasligi;

d) qarz oluvchi subyektning mahalliy yoki davlat miqyosida obro'sining tushib ketishi, uning ishchanlik faoliyatida yuzaga kelgan o'zgarishlar va b.

Tijorat banklarining dolzarb muammolaridan biri balans ma'lumotlari va kredit portfelining tahlili asosida kredit risklarini boshqarish hisoblanadi. Kreditlarni risk sinflariga guruhlash, ularni tahlil qilish, minimallashtirish va bank manfaatini himoya qilish usullarini ishlab chiqish kredit risklarini kamaytiradi. Ishlab chiqishida pasayish bo'layotgan korxona va tarmoqlarda kreditning to'planishidan voz kechish lozim.

Kredit riskini kamaytirishning navbatdagi yo'nalishi O'zbekiston respublikasi Markaziy bankining "O'zaro bog'liq qarz oluvchilar guruhi yoki bir qarz oluvchiga to'g'ri keluvchi maksimal risk miqdori to'g'risida"gi yo'riqnomaga amal qilishdan iborat. Bu yo'riqnoma bo'yicha:

- bir qarz oluvchiga yoki o'zaro bog'liq qarz oluvchilar guruhiga to'g'ri keluvchi maksimal risk miqdori birinchi darajali bank kapitalining 25 % idan oshmasligi;

- ishonchli (blankali) kreditlar bo'yicha maksimal risk miqdori birinchi darajali bank kapitalining 5%dan oshmasligi;

- bank tomonidan berilgan investitsion kreditlarning umumiy summasi 1-darajali bank regulyativ kapitalining 8 barobaridan oshmasligi lozim.

O'zbekiston Respublikasida ko'pgina banklar sohalar bo'yicha ixtisoslashgan banklar bo'lib, ularning kredit qo'yilmalarining asosiy qismi o'zi ixtisoslashgan sohalariga yo'naltiriladi. Shu jihatga ko'ra mening fikrimcha, ixtisoslashgan bank bir sohaga kredit berganda, shu soha uchun berilgan kreditlar miqdori bank kredit portfelining 35% idan oshmasligi lozim. Bu ham o'z navbatida investitsion kredit riskini oldini olishni bir omili bo'lishi mumkin.

Tijorat banklari bozor infratuzilmasining muhim bo'g'ini sifatida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Xo'jalik subyektlarining, aholining, hukumatning joriy va investitsiya xarajatlarining aksariyat qismi bank kreditlari hisobidan moliyalashtiriladi. Darhaqiqat, bu haqda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ushbu masala xususida to'xtalib, "... bank xizmatining yangi turlarini joriy qilish, aholi va xo'jalik subyektlarining bo'sh mablag'larini banklarning uzoq muddatli depozitlariga jalb qilishni kamida 30 foizga ko'paytirish, mamlakat iqtisodiyotiga kiritiladigan uzoq muddatli kredit qo'yilmalari ulushini ichki manbalar hisobidan oshirish uchun mustahkam asos yaratish masalalarini qo'shimcha ravishda ishlab chiqish"ga e'tibor qaratdilar. Shuningdek, barcha xo'jalik subyektlarining milliy va xalqaro hisob-kitoblari tijorat banklari orqali amalga oshiriladi.

Respublikamiz tijorat banklari investitsion kreditlarining daromadlilikini oshirish va uning barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan bir qancha muammolar mavjud. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, respublikamiz tijorat banklarida kreditlarning barqaror daromadlilik darajasini ta'minlashga muvaffaq bo'linmagan. Shuningdek, muddati o'tgan kreditlarning brutto-kreditlar hajmidagi salmog'ining o'sish tendensiyasiga ega ekanligi banklarning kreditlash jarayonidagi muammoli jihatlardan hisoblanadi.

Iqtisodiyotning muttasil tizimiy tanglikdan chiqish zaruriyati asosiy kapitalning yangilanishini eng muhim va dolzarb muammolar qatoriga qo'shib qo'ydi. Mazkur sarmoyaning hajmi va tarkibi mehnat unumdorligining o'sishi, tannarxning kamayishi, mahsulot sifatining oshishida o'ta muhim omil bo'lib

hisoblanadi. Asosiy sarmoyaning yangilanishida mablag'lar investitsiyalar ko'rinishida kirib keladi. Investitsiyalar sur'atini oshirishda daromad va amortizatsiya bilan bir qatorda ssuda ajratish moliyaviy faoliyatining asosiy ko'rinishi bo'lgan tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan investitsion kreditlar muhim rol o'ynaydi.

Har qanday tijorat bankning asosiy vazifalaridan biri o'z mablag'larini boshqarish, shu jumladan ularni kreditlash yoki investitsiyalash shakllarida jalb qilish va joylashtirishdan iborat. Kreditorlarni to'g'ri tanlash loyihaning amalga oshirishini ta'minlovchi zaruruy shartdir. Ko'pincha kreditlarning asosiy manbasi bo'lib tijorat banklari hisoblanadi. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda bank muassasasi kreditni taqdim etishning turli variantlarini ishlab chiqadi, moliyalashtirishni tashkillashtiradi, o'z zimmasiga moliya konsultanti vazifasini yuklaydi, risklarni loyiha bo'yicha taqsimot tartibini ishlab chiqadi, mijozga va shu bilan birga uning boshqa kreditorlar bilan aloqasiga xizmat ko'rsatadi.

Shubhasiz, moliyalashtirishga taqdim etilayotgan loyihani va uning muassislarini bank quyidagi talablarga asosan sinchkovlik bilan tahlil qiladi:

- loyihaning iqtisodiy va moliyaviy hayotga qobilligi puxta va professional tarzda tahlildan o'tishi lozim;
- muassislarning moliyaviy ahvoli, malakasi va niyatlari shubha tug'dirmasligi kerak.

Bank investitsion kreditlash bozorida o'z o'rnini mo'ljallab va loyihaga pul ajratishda quyidagilardan kelib chiqadi:

jalb etilayotgan mablag'larning manbasi va xarakteridagi bo'lgan o'z ixtisosligidan; investitsiya manbalari sifatida qatnashayotgan bank sheriklari, masalan, sug'urta kompaniyalari, budjet va budjetdan tashqari fondlar, xususiy pension fondlar, xususiy chet el investorlardan.

Kam daromad keltiruvchi infratuzilma sohalarini (yo'l qurilishi, sog'liqni saqlash, ta'lim, qishloq xo'jaligi) uzoq muddatli investitsiya qilish masalalari

hozirgi kunda va bundan keyin ham Moliya vazirligi vakolatlari doirasida hal qilinadi. Eksportga mo'ljallangan xomashyo sohalarni (neft, gaz, enegetika, rangli metallar) o'rta va uzoq muddatli investitsiyalash davlat resurslari hisobiga tijorat banklari tomonidan va chet el investorlari mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Yuqorida ko'rib o'tilgandek mamlakatimiz banklari tomonidan ham investitsion loyihalarni moliyalashtirishni tashkil etish borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi.

Tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish borasida hali ko'pgina yechimini kutib turgan muammolar mavjud. Bu borada hukumatimiz tomonidan ham mazkur muammoni ijobiy hal etishda yordam beradigan bir qator muhim vazifalar belgilab berilgan. Jumladan:

- yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha bankning kredit hajda investitsiya siyosatini va investitsiya loyihalarini uzoq muddatli kredit mexanizmlarini yanada takomillashtirish;

- loyiha hujjatlari, ularning moliyaviy jihatdan o'zini qoplash va rentabelligini chuqur tahlil qilish asosida investitsiya loyihalarini puxta tanlab olish, kompleks baholash hamda sifatli ekspertiza qilishni ta'minlash;

- investitsion loyihalarni moliyalashtirishga o'z moliya mablag'larini sarflash va ulardan samarali foydalanish, loyihalarning amalga oshirib borilishini doimiy monitoring qilish, qo'yilgan mablag'larning o'z vaqtida va to'liq qaytarilishini ta'minlash;

- investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan banklar bo'linmalarini professional tayyorlangan yuqori malakali kadrlar bilan mustahkamlash, investitsiya loyihalarini tanlab olish, ekspertiza qilish va amalga oshirish masalalari bo'yicha bank mutaxassislarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish sifatini tubdan yaxshilash.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda qarz mablagʻlari (kreditlar) muhim strategik ahamiyatga egadir. Chunki, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona oʻz mablagʻ manbalari cheklangan boʻlib, ular asosan joriy xarajatlarni qoplash uchun sarflanadi, qolgan qismi esa cheklangan mablagʻ sifatida investitsion faoliyatni chegaralab qoʻyadi. Shu bois hozirda investitsiya resurslari bozorida taklifning nafaqat barqarorlashtirish balki qancha miqdorda oshirish uchun uning manbalari tarkibida davlat ulushini kamaytirgan holda chet el kreditlari va mahalliy banklar kreditlarini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi ishtirokini toʻla taʼminlash maqsadida quyidagilarga eʼtibor berish lozim, yaʼni depozit va kredit uchun toʻlanadigan foizlarni muvofiqlashtirish, majburiy zaxiralar meʼyorini belgilashni tijorat banklari zimmasiga yuklash, banklarda xizmat koʻrsatish turlarini koʻpaytirish va takomillashtirish. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda kreditning rolini oshirishni taʼminlash masalasini hal etishda quyidagilarga ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir:

- investitsiya loyihalarini kreditlovchi subyektlar faolligini oshirishda maʼlum imtiyozlar berish va tegishli meʼyoriy hujjatlarni mavjudligini taʼminlash;
- investitsiya loyihalarini tayyorlash bosqichlarini imkon qadar yuksaltirish boʻyicha meʼyoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish;
- iqtisodiyotda kredit turlarini koʻpaytirish va takomillashtirish bilan bir qatorda, kredit taʼminotini nodavlat korxonalari va banklar zimmasiga oʻtkazish;
- investitsiya loyihalarini chet el kreditlari bilan taʼminlashda mamlakat bilan, tadbirkor bilan, chet el investorlari bilan bogʻliq omillarning har birini manfaatini hisobga olish;

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda kreditning faolligini oshirish uchun banklarda kredit turlari (lizing, sinditsit va boshqalar)ni koʻpaytirish; banklarning toʻlovga qobiliyatligi va ishonchliligini oshirish; bank depozitlari uchun majburiy zaxiralar meʼyorini pasaytirish; hukumat qarorlari asosida amalga

oshiriladigan dasturlar natijasida bank tomonidan ko‘rilgan zararlarni budjet hisobidan qoplash; omonatlar va investitsiya kreditlaridagi foiz stavkalari o‘rtasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilinganda, kreditlar tadbirkorni real oladigan daromadini ko‘paytirishga undaydi, pirovordida, jamiyat a‘zolaridan boqimandalik kayfiyatini yo‘qotadi, korxonada texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq yangi yo‘nalishni ochib beradi va bu sohada yangiliklar, kashfiyotlar qilishga undaydi.

Iqtisodiy o‘rish uchun investitsiya loyihalarini budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish zarurligini hech kim inkor etmaydi. Davlatning investor bo‘lishi tabiiy, chunki busiz iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlab bo‘lmaydi. Davlat bu vazifani investitsiyalash uchun zarur moliyaviy mablag‘larni budjet vositasida qayta taqsimlash orqali bajaradi. Shu sababli o‘tish davrida davlatning investitsiya resurslaridagi hissasini katta bo‘lishi turgan gap.

Bank krediti amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, loyihalarni moliyalashtirishda banklarni faoliyati qanchalik serqirralik bo‘lmasin xamda uzoq muddatli kreditlarni hissasi qanchalik o‘rish tendensiyasiga ega bo‘lmasin, mamlakatimiz real sektori investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda bank kreditini hissasi hanuzgacha juda oz miqdorda.

Investitsiyalash borasidagi faollikni oshishi va davlatning iqtisodiy o‘rishida muhim o‘rinni banklar egallaydi. Banklar investitsiya resurslarini ishlab chiquvchi akkumulyator sifatida namoyon bo‘lishi lozim, ammo investitsiyalar hajmi hali ham yetarli darajada emas.

Birinchidan, investitsiyaga mablag‘larni joylashtirish riski yuqoriligi bilan bog‘liq. Bu hol, ayniqsa, mablag‘ni ko‘p talab qiluvchi investitsiya loyihalariga xosdir. Bu vaziyatda sanoatga investitsiya qilish uchun resurslarni jalb qilish uchun resurslarni jalb qilish o‘ta mushkul vazifaga aylanib qoldi.

Ikkinchidan, moliya bozorlarida serdaromadlilikning pasayib ketishi banklarning investitsiyalash imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi. Ayrim banklar, joriy

likvidlikning ahvolini kuzatib, investitsiya loyihalarida ishtirok etishni xohlamaydi. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, iqtisodiyotning nisbatan qulayroq sharoitlarida ham ko'pchilik banklarning jami moliyaviy mablag'lari sanoat, transport, aloqa va boshqa tarmoqlarni kapital qo'yilmalar bilan ta'minlash yetarli darajada emas.

Uchinchidan, davlat investitsiya sohasida o'zini qanday tutishi u yoki bu mamlakatning investitsion muhitiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Davlatning bu sohadan chiqib ketishi ham ushbu iqlimga birmuncha salbiy ta'sir etadi.

Investitsion muhitni yanada yaxshilash shart-sharoitlaridan biri bank tizimini takomillashtirish, ya'ni moliya bozorida raqabatni yaratish, xorijiy investorlar uchun axborot ta'minotini yaxshilashdan iborat. Mablag'lar yetishmasligi va bank riskini kamaytirish muammolarini hal qilish maqsadida sindikatlashgan kredit taklif qilinishi maqsadga muvofiqdir. Sindikatlashgan kreditlash yordamida banklar yirikroq loyihalarni kreditlash va riskni sindikat ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash imkoniga ega bo'ladilar.

Ushbu yo'nalishlarni amalga oshirish uchun tashqi va ichki resurslarni harakatlantirib, investitsion kreditlash sohasida amaliy ishlarni bajarish lozim. Bu borada banklarning investitsion faoliyatini takomillashtirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- banklararo bozorda ahvolni stabillashtirish, tijorat banklarining ichki mustahkamligini oshirish; aholi va korxonalar depozit jamlash normalarining o'sishi bir vaqtning o'zida tijorat banklarini passivlar tarkibini o'zgartiruvchi omil bo'lib hisoblanadi hamda korxonalar tomonidan o'z mablag'lari hisobiga investitsiya loyihalarida kengaytirilgan tarzda ishtirok etishi asosiy shart deb hisoblanadi;

- investitsiya loyihalarini birgalikda kreditlashda banklararo hamkorlikning rivojlanishi;

- alohida banklarning tavakkalini pasaytirish va resurslarni yiriklashtirish maqsadida sindikat kreditlaridan foydalanishni faollashtirish;

- davlat tomonidan kredit resurslarining jamlanishi va ularni kredit shaklida davlat moliya institutlari orqali taqsimlash;
- loyihani amalga oshirishga moliyaviy javobgar bo'lgan institutlar ya'ni banklarning investitsiya loyihalarini ekspertizasida bo'lgan rolini oshirish;
- tijorat banklari investitsiya faoliyatidan olgan daromadlarni ushbu faoliyatni maxsus fondlar yaratish orqali rag'batlantirishda ishlatish;
- iqtisodiyotning real sektorini investitsiyalashni sug'urtalash tizimini yaratish.

Yuqorida ta'kidlangan takliflarni iqtisodiyotning real sektorini kreditlashda tijorat banklarining investitsion faoliyatini takomillashtiradi va iqtisodiyotni rivojlanishida yetakchi o'rinni yegallaydi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

Tijorat banklarining ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi investitsion faoliyati samaradorligini oshirish jarayonida hali o'z yechimini topmagan muammolar mavjud.

Investitsion loyihalarining aksariyat qismi investitsion kreditlar hisobidan moliyalashtiriladi. Kredit riskining chuqurlashishi natijasida investitsion kreditning o'z vaqtida qaytmaslik riski vujudga keladi.

Tijorat banklarining dolzarb muammolaridan biri balans ma'lumotlari va kredit portfelining tahlili asosida kredit risklarini boshqarish hisoblanadi. Kreditlarni risk sinflariga guruhlash, ularni tahlil qilish, minimallashtirish va bank manfaatini himoya qilish usullarini ishlab chiqish kredit risklarini kamaytiradi. Ishlab chiqishida pasayish bo'layotgan korxona va tarmoqlarda kreditning to'planishidan voz kechish lozim.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda kreditning faolligini oshirish uchun banklarda kredit turlari (lizing, sinditsit va boshqalar)ni ko'paytirish; banklarning to'lovga qobiliyatligi va ishonchligini oshirish; bank depozitlari uchun majburiy zaxiralar me'yorini pasaytirish; hukumat qarorlari asosida amalga

oshiriladigan dasturlar natijasida bank tomonidan ko‘rilgan zararlarni budget hisobidan qoplash; omonatlar va investitsiya kreditlaridagi foiz stavkalari o‘rtasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish maqsadga muvofiqdir.

Mablag‘lar yetishmasligi va bank riskini kamaytirish muammolarini hal qilish maqsadida sindikatlashgan kredit taklif qilinishi maqsadga muvofiqdir. Sindikatlashgan kreditlash yordamida banklar yirikroq loyihalarni kreditlash va riskni sindikat ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlash imkoniga ega bo‘ladilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot doirasida amalga oshirilgan investitsion loyihalarni tijorat banklari investitsion kreditlari hisobidan moliyalashtirish muammolarining tahlili shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda iqtisodiyotining eng rivojlangan moliyaviy institutlari hisoblanuvchi tijorat banklari investitsion loyihalarni moliyalashtirish sohasida katta imkoniyatlarga ega bo'lgani holda, bir qancha muammolarga duch kelmoqdalar va natijada hatto foydali loyihalarni ham moliyalashtirishdan bosh tortmoqdalar. Bu holat investitsion loyihalarni tijorat banklari tomonidan moliyalashtirishning rivojlanish jarayoniga to'sqinlik qilmoqda.

Ba'zan tijorat banklari o'z aktivlari likvidlik darajasining pastligi muammosiga duch keladi, bu hol moliyalashtiruvchi banklar nuqtai nazaridan juda foydali bo'lgan investitsion loyihalarni moliyalashtirishni qiyinlashtiradi. Bu muammoni yechish ayniqsa davlat tijorat tuzilmalari, ayniqsa banklarni uzoq muddatli, ko'pincha ijtimoiy muhim tadbirlarga ko'proq mablag'lar kiritishga rag'batlantirishga harakat qilayotgan davrda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunday sharoitda banklar biryo'la ikki maqsadni ko'zlashi: bir tomondan, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy ravnaq topishni ta'minlovchi, uzoq muddatli qo'yilmalarni talab qiluvchi jarayonlarga qo'shilishi, boshqa tomondan, o'z mijozlari va aksiyadorlarining qisqa va o'rta muddatli ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli darajada likvidlikni saqlab qolishga harakat qilishiga to'g'ri keladi ularni yechish bugungi kunda dolzarb vazifa hisoblanadi.

Risklarni boshqarish investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonidagi muhim muammolardan biridir. Loyiha risklarini ularning xususiyatiga va loyiha siklida ularning yuzaga kelish vaqtiga qarab tasniflash mumkin. Xususiyatiga ko'ra, umumiy tijorat risklari, siyosiy yoki mamlakat risklari, suveren risklar va rivojlanayotgan mamlakatlardagi investitsiyalar bilan bog'liq risklar farqlanadi. Ayrim risklar u yoki bu bosqichga xos bo'lsa, ayrim risklar barcha bosqichlarga xos bo'lishi mumkin. Biroq, ko'pgina tadqiqotchilar tasniflarda ko'pincha bank o'z mijozlari bilan kirishadigan shartnoma munosabatlari bilan bevosita belgilanuvchi sherikchilik riski e'tibordan chetda qolishini qayd etadilar. Bu riskni hisobga olish,

bizning nazarimizda, kontragent bank oldida o'z majburiyatlarini bajarmagan holda zarar ko'rishning oldini olishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining investitsion kreditlash amaliyotini takomillashtirishga doir o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqdik:

1) banklar, investitsiya fondlari, sug'urta va lizing kompaniyalari faoliyatini rag'batlantirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ularning ishtirokini samarali yo'lga qo'yish;

2) hududlarda konsalting, marketing va yuridik xizmat ko'rsatuvchi markazlar tashkil etish va faoliyatini rivojlantirish;

3) tashabbuskorlarga investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda tijorat banklari, hududlardagi savdo-sanoat palatasi va boshqa mas'ul idaralar tomonidan amaliy yordam ko'rsatilishini mahalliy hokimliklar tomonidan tashkil etish va doimiy nazoratga olish;

4) investitsiya dasturlari va hududlarni ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha dasturlarga kiritish taklif etilayotgan loyihalar tashabbuskorlarining moliyaviy-iqtisodiy holatini mahalliy hokimliklar va tijorat banklari tomonidan chuqur tahlil qilinishi;

5) xorijiy investorlarni to'laqonli ravishda axborot (investitsiya loyihalari va biznes takliflar bazasi, hududiy matbuot nashrlari, iqtisodiy tahlil xom-ashyo va mehnat salohiyati to'g'risida ma'lumotlar) bilan ta'minlash uchun har bir hudud bo'yicha "Viloyat investitsiya salohiyati" veb-portalini tashkil etish, investitsiya faoliyatiga oid konferensiyalar, seminarlar va taqdimotlar o'tkazish;

6) xorijiy kapital ishtirokidagi banklarni shakllantirish. Bunda xorijiy kapital bilan birga xorij tajribasi mamlakatga kirib keladi va investitsion loyihalarni kreditlashda ham xorijiy banklar tajribasi, malakasini qo'llash imkonini beradi;

7) tijorat banklari ishtirokida moliya-sanoat guruhlarini tashkil etishni jadallashtirish;

8) banklarda mavjud ssuda aktivlari asosida qimmatli-qog'ozlar chiqarish (sekyuritizatsiyalash) va ushbu obligatsiyalar evaziga kapital resurslarni ko'paytirish;

9) mamlakatimizda banklar boshchiligida investitsion fondlarni tashkil etish va mazkur fondlar orqali investitsiya maqsadlari uchun mablag'lar yo'naltirishni tashkillashtirish. Banklarning mazkur jarayonlarda boshchilik qilish sababini esa hozirda banklarda investitsion loyihalarni moliyalashtirish borasida va mablag'larni boshqarish bo'yicha to'plangan ulkan tajriba asosida yaxshi natijalarga erishishlari mumkin;

10) tijorat banklarimiz chetdan arzon resurslar jalb etish maqsadida yirik moliya tashkilotlari tomonidan yo'naltiriladigan mablag'larni o'zlashtirishda o'zlarining investitsion faolliklarini ko'rsata olishlari lozim;

11) xorijiy davlatlar tijorat banklarining investitsion kreditlash amaliyotini takomillashtirish borasidagi tajribalardan respublikamiz bank amaliyotida foydalanish imkoniyatlari yaratilishi kerak;

12) respublikamiz tijorat banklarida investitsion kreditlarni rasmiylashtirish va ularning buxgalteriya hisobini yuritish yo'lida qo'yilayotgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida tijorat banklari ichki audit xizmati xodimlarining mas'uliyatini oshirish lozim; 13) mamlakatimiz tijorat banklarining mijozlarni kredit to'loviga layoqatligini baholash tizimini takomillashtirish zarur.

Yuqorida bayon etilganlarga xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda investitsion kreditlash va loyihaviy moliyalashtirishni rivojlantirish shuning uchun ham maqsadga muvofiqki, har xil tijorat loyihalari, g'oyalarini uzoq muddatli kreditlashga muhtoj korxonalar soni tobora ko'payib boryapti. Bunda kredit resurslari aylanma vositalarini xarid qilishga emas, balki strategik rivojlanish dasturlarini moliyalashtirishga yo'naltirilishi nazarda tutiladi. Ma'lumki, bu holda joylashtirilgan resurslar ancha uzoq vaqtdan keyin va aksariyat hollarda tijorat loyihalarini amalga oshirish natijasida shakllanuvchi daromadlar hisobidan qaytib keladi.

Shunday qilib, o‘tilgan amaliy tavsiyalar amalga oshirish ayni paytda banklar tomonidan investitsion loyihalarni moliyalash orqali pirovard natijada O‘zbekiston iqtisodiyotining yanada kuchli, barqaror va mutanosib rivojlangan holda maydonga chiqishi, jahon bozorlarida o‘zimizning mustahkam o‘rnimizni egallash, shular asosida izchil iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini yanada oshirish bo‘yicha oldimizda turgan ustuvor vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun ishonchli zamin yaratadi. Sababi aynan banklar, butun iqtisodiyotimizni oziqlantirib turadigan qon tomirlari hisoblanadi, mamlakatimizning moliyaviy iqtisodiy barqarorligi ko‘p jihatdan ularning samarali faoliyatiga bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.– T.:O'zbekiston, 2015.- 40 b
2. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida”gi Qonuni. – T.: “O'zbekiston”, 1995 yil 21 dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida” gi Qonuni. – T.: “O'zbekiston”, 1996 yil 25 aprel.
4. O'zbekiston Respublikasi “Investitsiya faoliyati to'g'risida”gi Qonuni. 1998 yil 24 dekabr.
5. O'zbekiston Respublikasi “Chet el investitsiyalari to'g'risida”gi Qonuni. 1998 yil 30 aprel.
6. O'zbekiston Respublikasi "Qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat yuritish mexanizmi to'g'risida"gi Qonuni.
7. O'zbekiston Respublikasi "Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida"gi Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi "Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 apreldagi PF-4434 sonli “To'g'ridan - to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi 4058-sonli “Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida”gi Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2012 yil 11 yanvardagi 2312-sonli “To'g'ridan – to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi korxonalar uchun soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi to'g'risida”gi Nizom.
12. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2016. -56 6.

13. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: «O'zbekiston», 2017. - 104 b.

14. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalqfarovonligining garovi. - Toshkent: «O'zbekiston», NMIU, 2017. - 48 b.

15. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: «O'zbekiston», NMIU, 2017. - 488 b.

16. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. // Xalq so'zi, 2011 yil 22 yanvar.

17. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. // Xalq so'zi, 2010 yil, 8 dekabr.

18. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. // Xalq so'zi, 2010 yil 13 noyabr.

19. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / I.A.Karimov. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.

20. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ustuvorligini ta'minlash-barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir“. // Xalq so'zi, 2008 yil 9 fevral

21. Karimov I.A. O'zbekiston –bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li.-T.: O'zbekiston, 1993.-128 b.

22. Karimov I.A. Iqtisodiy islohot: mas'uliyatli bosqich.-T.: O'zbekiston, 1994.-44 b.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

23. James R. Barth, Gerard Caprio, Jr. Ross Levine “The Regulation and Supervision of Banks Around the World” A New Database February 2001.

24. Abdullayeva Sh.Z. CAMEL-bank faoliyatini baxolash xizmatida.// Bozor, pul va kredit jurnali, 1998 yil 4-son 49-bet.

25. Исаджанов А. Конкурентоспособность национальной экономики: мировой опыт и современные тенденции развития. - Экономический вестник Узбекистана, №6, 1999, с.2-3.

26. Александров В. Стоимость мирового рынка М&А заметно выросла // Слияния и поглощения. 1-2 (95-96). 2011. 66 стр.

27. Радигин А. Соч. сит. 23-45 стр; Петрова В. Лучше меньше, да лучше // Слияния и поглощения. № 10 (80). 2009. 29-35 стр.

28. Радигин А.Д., Ентов Р.М. Слияния и поглощения в корпоративном секторе: основные подходы, особенности России и задачи регулирования. М., 2010, 26 стр.

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

29. Abdullayeva Sh.Z. “Bank ishi”. Toshkent 2003 yil.

30. Abdullayeva Sh.Z. Omonov A. “Tijorat banklari kapitali va uni boshqarish” IQTISOD-MOLIYA .Toshkent-2006 yil.

31. Abdullayeva Sh.Z. Safarova Z. “Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarish” IQTISOD-MOLIYA .Toshkent. 2007 yil.

32. Bank Risk Management in Developing Economies Addressing the Unique Challenges of Domestic Banks through Risk Management Book 2017, Leonard Onyiriuba, <http://www.sciencedirect.com/science>.

33. Bank Liquidity Creation and Financial Crises New Perspectives Book 2015, Academic Press, Allen N. Berger, Christa H.S. Bouwman, <http://www.sciencedirect.com/science>.

34. Богатин Ю.В., Швандар В.А. Инвестиционный анализ. Учебное пособие для вузов - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009. - 286 с.

35. Бочаров В.В. Инвестиции: Учебник для вузов. 2-е изд.- СПб.: Питер, 2008.- 384с.

36. Вахрин П.И., Нешиной А.С. Инвестиции: Учебник. – 3-е изд., перераб. И доп. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К», 2005. 620 с.
37. Jo'rayev A.S., Xo'jamqulov D.Yu., Mamatov B.S. Investitsiya loyihalari tahlili: Oliy o'quv muassasalari uchun o'quv qo'llanma - T.: - «Sharq», 2003. 225 b.
38. Norqobilov S., Dadaboyeva X., Jo'rayev O'. "Xalqaro amaliyotda bank nazorati". IQTISOD-MOLIYA .Toshkent-2007 yil 172 bet.
39. Ergasheva Sh., Uzoqov A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod-moliya, 2008.-208 b
40. Ermatov M.K. «Bank nazorati va auditini takomillashtirish muammolari»-T. «IQTISOD-MOLIYA»nashriyoti , 2005, 144 b.
41. Ipoteka-bank ATIB yillik hisobotlari.
42. www.ipoteka-bank.uz
43. www.stat.uz- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.
44. www.uza.uz- O'zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligining rasmiy sayti.
45. Globalization and Global Governance. Wellington House, London 2000, p.26, A.J.Scott, Regions and world economy, Oxford University Press, England 2000, p.49
46. https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_tashkilot/Xalqaro_valyuta_fondi
47. <http://www.imf.org/external/np/exr/facts/glance.htm>. Международный Валютный Фонд.
48. <http://www.gov.uz/ru/press/economics/15471>.
49. <http://www.lex.uz> O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
50. <http://www.cbu.uz>. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-saytidan olingan ma'lumotlar
51. <http://xs.uz/index.php/i-tisodijot/item/4534>. Xalq so'zi gazetasining rasmiy veb-saytidan olingan ma'lumotlar.

52. <http://mineconomy.uz/uz/node/779>. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining rasmiy veb-saytidan olingan ma'lumotlar.
53. <http://www.worldbank.org/ru/country/uzbekistan>. Jahon banki rasmiy veb-saytidan olingan ma'lumotlar.
54. <http://www.worldbank.org/ru/country/uzbekistan>. Jahon banki rasmiy veb-saytidan olingan ma'lumotlar.
55. <http://www.mfer.uz/uz/international-cooperation/international-organizations/2244/>. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligining rasmiy veb-saytidan olingan ma'lumotlar.
56. <http://mineconomy.uz/uz/node/779>. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining rasmiy veb-saytidan olingan ma'lumotlar.
57. <http://www.mfa.uz/ru/cooperation/international/92/>. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining rasmiy veb-saytidan olingan ma'lumotlar.
58. <http://www.mfer.uz/uz/international-cooperation/international-organizations/2244/>.
59. <http://www.worldbank.org/ru/country/uzbekistan>. Jahon banki rasmiy veb-saytidan olingan ma'lumotlar.
60. <http://www.worldbank.org/ru/country/uzbekistan>. Jahon banki rasmiy veb-saytining O'zbekistonga bag'ishlangan sahifasidan olingan ma'lumotlar.
61. <http://www.worldbank.org/ru>. Jahon banki rasmiy veb-saytidan olingan ma'lumotlar.
62. Oliy Kengash Axborotnomasi, 1992 y., 9-son, 333-modda.
63. <http://www.lex.uz>. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
64. www.worldbank.org – Jahon bankining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan rasm shakliga keltirildi.